**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI**
**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**

**O‘ZBEK ADABIYOTI UNI O‘QITISH**
**USLUBIYATI KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
v.b.____________ f.f.n. Sh.Haydarov
“____” _________________ 2013 yil

# BOSHLANG’ICH TA'LIM VA TARBIYASIDA MUSTAQILLIK MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARIDAN FOYDALANISH

**mavzusidagi**

# *B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I*

Bajaruvchi: Abdumalikova Gulnoza

Ilmiy rahbar: prof. B.To’xliyev

**JIZZAX -2014**

## R E J A:

**KIRISH..............................................................................................................**

**I BOB. YOSHLAR TARBIYASIDA MUSTAQILLIK VA SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI ...........................................................................................................**

1.1. Mustaqillik ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi ...................................................

1.2. Ta'lim tizimida shaxs ma'naviyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari..........................................................................................................................

**II BOB. MUSTAQILLIK VA SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MANBALARI........................................................**

2.1. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishning milliy pedagogika tarixidagi talqini va tahlili .................................................................................................................

2.2. Vatanparvarlik va iymon-e'tiqod tarbiyasi – shaxs ma'naviyatini shakllantirishning etakchi manbalaridan biri ......................................................

**XULOSALAR............................................................................................**

**ADABIYOTLAR RO`YXATI.........................................................................**

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi**. Ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari har bir jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichlarida eng dolzarb vazifalaridan biri bo`lib kelgan va hozir ham shunday ahamiyat kasb etmoqda. Ammo bu masalaning pedagogik muammo sifatidagi dolzarbligi jamiyatning yangilanish, yangi bir pog`onaga ko`tarilish davrida, sifat-o`zgarishlari ro`y berayotgan davrda yanada ham kuchayadi. Chunki jamiyatning sifat jihatidan yangi pog`onaga ko`tarilishi ma'naviyatning, axloqiylikning yanada yuksalishini talab etadi. Bunday deyishimizning asosiy sababi shuki, faqat tarbiya orqaligina har bir jamiyat a'zosiga insoniy fazilat va xislatlar singdiriladi, xolos. Ana shular evaziga esa insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi o`zgaradi. Bu esa jamiyatning navbatdagi taraqqiyotini yanada tezlashtiradi. Agarda tarix sahifalaridan o`chmas iz qoldirgan va ma'naviy merosimiz xazinalaridan munosib o`rin egallagan nodir manbalarga nazar solsak ushbu mushohadaning naqadar to`g`riligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz; buyuk ajdodlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug`ullanmasinlar, kelajak avlodlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraganliklarini kuzatamiz. Ular o`zlarining pedagogik qarashlarini, bu boradagi hayotiy kuzatishlarining hosilasi sifatidagi hamda fikr-mulohazalarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy-badiiy asarlari tarkibida yoki tarbiyaga doir maxsus asarlarida bayon etganliklarini ko`ramiz.

Xo`sh, ushbu pedagogik muammo hozirgi kunda ham dolzarblik kasb eta oladimi? Biz bu savolga bir so`z bilan «ha», «albatta» deb javob beramiz va fikrimizni quyidagilar bilan izohlaymiz:

Birinchidan, O`zbekiston Respublikamiz mustaqillikka erishib, rivojlanish, yangilanish va demokratik jamiyat qurish sari shaxdam qadamlar bilan odimlab boryapti. Hozirgi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, ma'naviyat sohasida ham chuqur o`zgarishlar sodir bo`layapti. Davlatimiz rahbari I.A.Karimovning nutq va risolalarida kelajagi buyuk davlatning istiqbolli yo`llari va tamoyillari, hozirgi jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilanishi va rivojlanishining asosiy negizlari keng yoritib berilganligini ko`rayapmiz va bunga bevosita guvoh bo`layapmiz.

Ikkinchidan, ma'naviy-axloqiy tarbiya ma'naviyatning asosi, ma'naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, qisqacha shunday fikrni aytamiz: hozirgi mustaqil davlatimizda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish uchun shu kunning davlat siyosati darajasiga ko`tarishi eng dolzarb pedagogik muammo sifatida o`ta mas'uliyatli vazifalaridan biriga aylanmoqdaki, uni bus-butunicha hozirgi yoshlar qalbiga va ongiga singdirish ta'lim-tarbiyaning turli shakllarida, shu jumladan, ma'naviy-axloqiy tarbiyada ham amalga oshirilishi shart va zarur. Bu esa ushbu masalaning yanada ham dolzarbligini ko`rsatadi.

Uchinchidan, «Ta'lim to`g`risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim-tarbiya sohasidagi tub yangilanishlarni hamda islohotlarning asosiy yo`nalishlarini ko`rsatib berdi, ta'lim-tarbiya sohasidagi bunday yangilanishlar bugungi kun talablarini o`zida to`lig`icha aks ettiradi, eng muhimi, ularda komil insonni shakllantirish masalasi asosiy o`rinni egallaydi. Bu masalani hal etish ta'lim jarayoninining tarbiyaviy tomonlariga ayniqsa, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga e'tiborni alohida kuchaytirishni talab etmoqda, kun tartibiga qo`ymoqda.

**Mavzuning o`rganiliish jarayoni.** Jahon xalqlari pedagogikasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarga nazar tashlasak, eng avvalo, axloqiy tarbiya jarayoninining turli qirralarini tadqiq etgan ishlarga (dissertatsiyalar, o`quv qo`llanmalar va monografik tadqiqotlarga) duch kelamiz. Axloqiy tarbiyadek keng qamrovli jarayonning ma'lum bir tadqiqotlarini o`rganish esa ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo`lish mumkinligini tasdiqlaydi:

Birinchi guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni barcha o`quv jarayonida axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o`quv kurslarida uni shakllantirishga qaratilgan, mana shu tarbiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlardan foydalanishga bag`ishlangan va milliy tarbiya asoslari ishlab chiqilgan tadqiqotlar (bu o`rinda M.Ochilov, S.Ochilov, K.Hoshimov, Z.Mirtursunov, S.Nishonova, O.Musurmonova, M.quronov, shuningdek, M.Inomova, S.Annamurodova, O.To`raev, O.Hasanboeva kabi ustoz olimlarimizning ishlarini nazarda tutamiz).

Ikkinchi guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni umumta'lim maktablarida o`quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish masalasiga bag`ishlangan tadqiqotlar (masalan, I.U.Mahkamov, T.qurbonov, H.N.Hamroeva, I.O.Ahmedov, M.I.Aslanov, S.Orinboev, S.S.Mirsagatova, D.I.Abdullaev, Yu.U.Ismoilov, L.I.Rubinskiy, M.I.Borovskiylarning amalga oshgan ishlarini ko`rsatish mumkin.)

Uchinchi guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni oliy ta'lim tizimida axloqiy tarbiyani shakllantirish muammosini yoritgan tadqiqotlar (masalan, B.Gapirov, Z.X.qosimov, G.I.Mahmudova, S.M.Yo`ldosheva, R.Mamatqulova va boshqalarning ishlarini nazarda tutamiz).

To`rtinchi guruhga mansub bo`lgan tadqiqotlar ya'ni ruhiyatga oid beoenergitek bilimlardan foydalanishning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan, bioenergitik xususiyatlarini o`rganishga bag`ishlangan hamda axloqiylik bilan inson salomatligi o`rtasidagi muayyan bog`liklarning mavjudligi aniqlangan tadqiqotlar (masalan, R.G.Skulachyov, B.V.Muxina, P.P.Pecherkun, K.P.Ivanov, A.V.Mologin, M.K.Xoshimova va boshqalarning amalga oshirgan ishlarini ko`rsatish mumkin).

**BMIning maqsadi** yoshlar tarbiyasida mustaqillik va shaxs ma'naviyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, mustaqillik va shaxs ma'naviyatini shakllantirishning manbalari va uni pedagogik jihatdan asoslashdan iboratdir.

**BMIning vazifasi:**

- mustaqillik ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi haqida fikr-mulohazalarni bildirish;
- ta'lim tizimida shaxs ma'naviyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish;
- Ta'lim tizimida shaxs ma'naviyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini khrsatib berish;
- Vatanparvarlik va iymon-e'tiqod tarbiyasi – shaxs ma'naviyatini shakllantirishning etakchi manbalaridan biri ekanligini asoslash.

**BMIning ilmiy yangiligi.** Aytish joizki, bugungi kungacha amalga oshirgan barcha pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'naviy - axloqiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari ishlab chiqilgan. Axloqiy tarbiya jarayonini milliy qadriyatlar va unitilib ketilgan milliy an'analar, urf-odatlar bilan boyitishdek muhim vazifalar ham amalga oshirilgan. Buni isbotlashga va izohlashga zaruriyat yo`q.

Ammo ma'naviy - axloqiy tarbiya masalasiga bag`ishlangan barcha pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida axloqiylikning mezonlari, tarkibi va mazmun-mohiyati, ularning xalq pedagogikasidagi o`rni va o`ziga xos xalqona talqini hanuzgacha bir muammo tizimi asosida to`lig`icha o`rganilmagan, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning xalq og`zaki ijodi asarlarida, xususan, xalq dostonlari asosidagi pedagogik ilmiy tadqiqotlar bugungi ilmning hayotiy zaruriyati sifatida yaratilmagan.

Aytish joizki, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga alohida e'tiborimizni qaratish, uni yanada xalq pedagogikasining asl durdonalari-xalq dostonlari asosida mukammalroq o`rganishga bo`lgan hozirgi ilmdagi ehtiyoj va yuqorida tilga olingan jihatlar uning nihoyatda dolzarb ekanligini tasdiqlay oladi, - deb o`ylaymiz. Buni quyidagi holatlarda ko`ramiz:

1. Axloqiy madaniyatning doimiy rivojlanishini har bir jamiyatda yashagan ijodkor xalqning tafakkkuri, dunyoqarashi, pedagogikasi, urf-odatlari, rasm-rusumlari, bir so`z bilan aytganda, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog`liq xulosalari milliy pedagogikada, uning tarkibiy qismi sanalgan xalq dostonlarida o`z aksini topadi. Shuning uchun ham bunday asarlar avlodlarni kamolotga etkazuvchi tarbiya vositasi, tarbiya qomusi ham hisoblanadi.

2. Bugungi kunda ayniqsa milliy istiqlol tufayli yangi qurilayotgan demokratik jamiyat zamondoshlarimizdan yangicha dunyoqarashni va yangicha fikrlashni, yangicha munosabat va yuksak ma'naviy-axloqiylilik mezonlariga rioya qilishni talab qilmoqda, aslida, bularning tub o`zagi va asosi ijodkor xalqning milliy pedagogikasiga, uning vositasi sanalgan xalq og`zaki ijodi asarlarida mukammal darajada talqinini topgan.

3. Bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda yuz berayotgan tub va yangi-yangi islohatlar, o`zgarishlar, ma'naviy rivojini, xususan, uning asosi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yanada yuqoriroq pog`onaga ko`tarilishini talab qilmoqda. Bu esa o`z-o`zidan yana

milliy tarbiyaga, milliy pedagogikamizning asl durdonalariga-folklor asarlariga qayta-qayta murojaat etishni talab qilmoqda. Ana shu holatlarni hisobga olib xalq pedagogikasi orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasini yuqorida ta'kidlagan yondashuvlar asosida baholi-qudrat tadqiq etilsa, nur usiga nur bo`lur edi.

Muammoni o`rganish jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitish maqsadida, milliy pedagogikamizdagi va qadriyatlaridagi axloqiy tarbiyaga tegishli bilimlardan, xususan, dostonlardagi xalqona xulosalardan samarali foydalanish joiz. Chunki, bu sohadagi ijodkor xalqning tugal va sermazmun xulosalari har bir o`quvchi-yoshlarda o`z-o`zligini anglashga, ajdodlar ruhiga mos tarzda tarbiyalanishiga va ularda ma'naviy-axloq tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi, komil inson bo`lib etishishiga asos bo`la oladi.

**MBI tuzilishi.** Mazkur MBI 2 bob (xar biri 2 paragrafdan iborat), xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iboraт.

# I BOB. YOSHLAR TARBIYASIDA MUSTAQILLIK VA SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

## 1.1. Mustaqillik ma'naviyati va yoshlar tarbiyasi

Ma'lumki, Prezidentimizning ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya borasidagi fikrlarni atroflicha o`rganish, tadqiq etish, yosh avlod ongiga singdirish davr talabidir.

Ushbu yo`nalishda Islom Karimovning ma'naviy-madaniy, ta'limiy – axloqiy qarashlarini yirik ko`lamda birinchilardan bo`lib professor Safo Ochilov tadqiq etdi. U «Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari» monografiyasida I.Karimov asarlari misolida yoshlar tarbiyasiga yangicha yondashuvni tahlil etdi.

Tadqiqotchi monografiyaning «O`zbekiston istiqloli taraqqiyotining besh tamoyili va mustaqillik tarbiyasi masalalari» bobida mustaqillikning mohiyati va uning yo`nalishlari, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, davlatning bosh islohotchilik roli, bu jarayonda tarbiyaning o`rni, qonun ustuvorligi – fuqarolar ongida eski tushunchalarni bartaraf etishning pedagogik negizi, kuchli ijtimoiy siyosat – ma'naviy barkamollik manbai ekanligi haqida I.A.Karimov qarashlarini sharxlab berdi. Xususan tadqiqotchi ma'naviyat va madaniyatga I.A.Karimov g`oyalaridan kelib chiqqan holda shunday ta'rif beradi: «Ma'naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go`zalligi, sahovat va qimmatliligi, oliyjanobligi, va'dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag`rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg`uborligi, xushmuomalaligi va shu kabi yoqimli fazilatlar tushuniladi».

Safo Ochilovning haqli ravishda uqtirishicha, «O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning barcha asrlari O`zbekiston tarixiga, uning fan va madaniyat, siyosat va iqtisodiyot sohalariga, shuningdek, xalq xo`jaligi taraqqiyoti, mustaqillik salnomasiga muhim qo`llanma va yo`llanma sifatida qo`shildi. Shuningdek, uning bu yo`llanmalari O`zbekiston pedagogikasi fani tarixida yangi sahifalar ochdiki, ular yosh avlodni yangi mustaqil davlatning taraqqiyot yo`lida halol va fidoyi insonlar qilib tayyorlashga bevosita yordam beradi».

Tadqiqotning «Mustaqillikning barqarorligini ta'minlash va yoshlar tafakkurini shakllantirish buyuk maqsad» hamda «O`zbekiston mustaqilligi va ma'naviy-axloqiy tarbiya» boblarida muallif yoshlarda O`zbekiston kelajagiga ishonch ruhini tarbiyalash, huquqiy ta'lim-tarbiya, ezgu maqsadga erishish malakalarini vujudga keltirish, halollik va fidoyilik odobini mustaqillik ruhida shakllantirish muammolariga e'tibor beradi, ularni atroflicha yoritib, muhim xulosalar chiqaradi. Jumladan, tadqiqotchining ta'kidlashicha, I.A.Karimov asarlarini yanada puxta o`rganish, ularni umumiy o`rta ta'lim maktablari, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari ta'lim-tarbiya jarayonida o`rgatishni keng joriy etish zarur. Chunki ushbu asarlarda, birinchidan, mustaqillik mohiyati, uning maqsad va vazifalari, ikkinchidan, yangi tuzumning, siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va pedagogik printsiplari, uchinchidan, yangi tashkil topgan tuzum g`oyasi

va aqidalari bilan mustahkam qurollangan insonlarni tarbiyalash usullari, to`rtinchidan, aholi turmush darajasini tinmay oshirib borish, xalq farovonligining tobora yuksalishiga asosiy diqqat-e'tiborni qaratish, uni amalga oshirishning aniq reja va yo`l-yo`riqlari, beshinchidan, odamlar ongidan tobelik, boqimandalikni butunlay siqib chiqarib, yangicha mustaqillik g`oyasi va mafkurasini to`la singdirish kabi insonparvarlik masalalari ishonarli va asosli ravishda keng yoritilgan.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ijtimoiy-ma'naviy zaruriyat sifatida maxsus pedagogik tadqiqotlar olib borishni kun tartibiga qo`ydi. Shu jihatdan Z.X.qosimovaning ishlari g`oyat daqqatga sazovordir.

U talabalarda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashni ijtimoiy-pedagogik muammo va muhim ijtimoiy buyutrma sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchining fikricha talabaning mafkuraviy immuniteti, bu — ta'lim-tarbiya yordamida hosil qilinadigan, uning yoshi va ongiga mos ravishda yot g`oyalar ta'siriga qarshi turadigan munosabatda namoyon bo`ladigan g`oyaviy bilim, ko`nikma va malakalar majmuidir. Muallif ushbu yo`nalishda rivojlangan mamlakatlar tajribasida mafkuraviy tarbiyaning boy imkoniyatlaridan foydalanishga oid mavjud namunalarni keltiradi. U asosiy e'tiborni pedagogika fanining yoshlarimizda har qanday yot mafkuraviy ta'siriga qarshi muayyan munosabatini hamma joyda har doim namoyon bo`lishini ta'minlashga qodir bo`lishga qaratadi. Talabalarda mafkuraviy immunitet egallangan bilim, his-tuyg`u, iroda, ko`nikma va malakalar yordamida shakllanadi. Mafkuraviy ko`nikmalar bilim, faoliyat va xatti - harakatlar birligida namoyon bo`ladi. Bunda eng muhimi ogohlik tarbiyasini amalga oshirish bo`lib, u esa o`z navbatida, mustaqil fikrlash zaminida paydo bo`ladi. Z.X.qosimova eng muhim yo`nalishlardan biri bu – talabalar faoliyatini samarali tashkil qilishdan iborat, degan xulosaga keladi. Ularning g`oyaviy-siyosiy qarashlarga bugungi kun qahramonlari hayoti siyosiy va badiiy asarlar katta ta'sir ko`rsatishini ta'kidlaydi.

«Millatlararo do`stlik klubi», «Yosh mafkurachilar klubi», «Oila tarixi»ni yaratish, «Kamolot» yoshlar tashkiloti faoliyatida ishtirok etish, «Ma'naviyat va ma'rifat kunlari», «Voizlar to`garagi», «Milliy g`oya bilimdonlari klubi»da suhbatlar, munozaralar, ma'ruzalar, bahs-anjumanlar o`tkazish, «Mafkuraviy sayohatlar» uyushtirish, «Mustaqillik yilnomasi»ni tuzish kabilar mafkuraviy kurashlar keskinlashayotgan sharoitda yoshlarda zamonaviy, ilmiy metodik usul va shakllar yordamida mafkuraviy immunitetni shakllantiradi.

Eng muhimi, tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik vositalarini yoritishga bag`ishlangan shakl va metodlar u ta'lim jarayoniga gazetalarda chop etilgan mafkuraviy materiallarga pedagogik ishlov berib foydalanish usulini tatbiq qiladi. Bunda talabalarni rasmiylikdan, til va uslubiy qoliplardan yiroq bo`lgan jonli muloqotga intilishlari, bilim saviyalari, dolzarb muammolarga tezkor

munosabatlari, mafkuraviy immunitetni qay darajada namoyon qilishlari, qiziqishlari hisobga olinadi. Z.X.qosimova talabalarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ilmiylik tamoyiliga rioya qilish; bayon qilinayotgan dalillarni diniy aqidaparastlikning har qanday ko`rinishlariga murosasizlik bilan bog`lash; yoshlarni bahslashishga o`rgatish; siyosiy bilimlarga qiziqish uyg`otish; talabalarning ijtimoiy faolligini har tamonlama rag`batlantirish; talabalar ongi va his-tuyg`ulari, ehtiyojini oqilona hisobga olish tamoyillariga amal qilingandagina tarbiyada samaradorlikka erishiladi, degan xulosaga keladi. Shu sababli tadqiqotchi talabalarni milliy estetikaning nazariy asoslari, san'atining turli janrlari va turlarining o`ziga xosligi va ifoda vositalari bilan tanishtirishga e'tibor beradi.

Z.X.qosimova talabalarda sog`lom mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr yuritar ekan oliy o`quv yurtlarida targ`ibot va qarshi targ`ibotning pedagogik xususiyatlarini yoritadi. Shuningdek, ishda ishontirish, bahs-munozara, o`zaro o`rgatish, mafkuraviy yo`naltirish, mafkuraviy hodisalarga tahliliy yondashish ko`nikmalarini shakllantirish, g`oyaviy insholar yozdirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, suhbat, ma'ruza kabilar g`oyaviy tarbiyaning muhim vositalari sifatida yoritilgan.

Shaxs kamolotining mezoni sanalgan ma'naviyat jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ham samarali ta'sir etadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishga mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning eng muhim, ustuvor yo`nalishlaridan biri sifatida e'tibor berib kelmoqda.

Shuning uchun ham ma'naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan o`zgartirish, uning mazmunini boyitish, samarali usullarini izlab topish hamda hayotga tatbiq etish muhim va zarur pedagogik yo`nalishdir.

### 1.2. Ta'lim tizimida shaxs ma'naviyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari

Mustaqillik davrida chop etilgan juda ko`plab ilmiy, falsafiy, pedagogik-tarixiy va o`quv-metodik adabiyotlarda, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda hamda ayrim lug`atlarda "ma'naviyat" tushunchasiining ijtimoiy-pedagogik mazmuni va uning asosiy tamoyillari, jamiyat, millat va xalq hayotida tutgan o`rni haqida xilma-xil ta'rif va tavsiflar, qisqacha ma'lumotnomalar berilgan. Ularning ayrimlariga e'tibor beraylik:

"Ma'naviyat – insonning zot belgisi, uning faoliyatining tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli".

"Ma'naviyat inson faoliyatining ruhiy mazmuni bo`lib, kishilar uning vositasida o`zlarini anglaydilar, jamiyat, tabiat, o`z turmush tarzi, amaliy faoliyati muammolarini hal etadilar".

“Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha”.

“Ma'naviyat – har bir insonning ichki ruhiyati, aql-zakovati, uni o`zini o`zi anglash, yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to`la qalbi, oldinga qarab yangi marallar sari ongli ravishda faollik ko`rsata bilish va intilish salohiyatidir” .

“Ma'naviyat – ko`p qirrali hodisa bo`lib, axloqiy (odob, burch, mas'uliyat tuyg`usi), ilmiy ijodiy, amaliy malakalar (mehnat, ijodkorlik, iste'dod, qobiliyat), diniy, mafkuraviy qarashlarning yaxlit birligidir”.

“Ma'naviyat millatning asrlar davomida shakllangan madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog`liq bo`lgan ichki (aqliy) intellektual va sobit hissiy dunyosidir”.

“Ma'naviyat – inson qalbida, ko`ngil ko`zgusida aks etgan haqiqat nuridir”.

“Ma'naviyat – bu kishi egallagan foydali bilimlar amaliy hayotida sinalib, ko`nikma va malaka darajasidan o`tgan va ruhiga singib, hayot tarzida aks etadigan ijobiy ijtimoiy sifatlar majmuidir”.

“Ma'naviyat-...axloq-odoblilik, bilimdonlik, iymon-e'tiqodlilik, ma'naviy va ma'rifatparvarlik kabi yoshlarni yuksak cho`qqilar sari etaklovchi va tarixiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan ijobiy sifatlar majmuidir”

Keltirilgan iqtiboslardagi fikr-mulohazalarga asoslanib, ma'naviyat tushunchasi va ijtimoiy-pedagogik mazmuni haqida quyidagi muxtasargina to`xtamga kelamiz: Ma'naviyat nihoyatda keng qamrovli tushuncha bo`lib, aslida arabcha “ma'no”, “ma'ni” fe'lidan olingan, o`zbek tili lug`at boyligida faol qo`llanadigan, insonlarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, madaniy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalarining majmuini ifodalaydigan, inson ongida kechadigan, amaliyotda ijobiy mazmun-mohiyatga ega bo`lan his-tuyg`u va g`oyalar yig`indisidir.

Ko`ramizki, qator kitoblar, risolalar va ilmiy maqolalardan olingan bu ta'riflarda ma'naviyat nihoyatda keng qamrovli tushuncha bo`lganligidan uning qaysidir qirrasi o`z aksini topgan. Shuning uchun ham ularning hammasini dabdurustdan bekorga chiqarish, butkul noto`g`ri, - deb baholash insofdan emas.

Ammo, afsuski, yaqin-yaqinlargacha, aniqrog`i, mustaqilligimiz qo`lga kiritilguncha ko`pchilik ma'naviyat masalasiga jiddiy yondashishga, inson va jamiyat hayotida muhim hisoblangan bu sohaga ilgari nazariy tizim darajasida ko`rib chiqilmagan.

Milliy taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy asoslarini maxsus o`rgangan va tadqiq qilgan prof. M.Imomnazarovning haqli ravishda ta'kidlashicha, inson ma'naviy dunyosi - nozik soha. Undagi vaziyatni osonlikcha, muayyan farmon yoki qaror qabul qilish bilan tuzatib bo`lmaydi.

Uni o`nglash uchun yillar davomida muntazam va sabr-toqat bilan mafkuraviy, tarbiyaviy, ma'rifiy ish olib borish, amaliy chora-tadbirlar, hayotiy o`zgarishlar joriy etish taqozo qilinadi.

Milliy ma'naviyat millatning o`tmishi, buguni va kelajagini qamraydi, ularni yaxlit tizimda tutib turadi. O`tmish ajdodlarimiz merosi bugungi jahon darajasi bilan uyg`unlashtirilsa, mamlakatimizdagi voqe ahvolga tatbiq etilsa, undan kelajak kurtaklari unib chiqadi, kelajak siymosi shakllanadi.

Shu sababli ham I.A.Karimov O`zbekiston Prezidenti lavozimiga saylangan dastlabki kunlardan beri xalq ma'naviyatini yuksaltirishga birinchi darajali e'tibor qaratib kelmoqda. 1990 yil 24 mart Oliy Kengash sessiyasida O`zbekistonda birinchi marta prezident lavozimi joriy etilib, Islom Abdug`anievich Karimov ushbu lavozimga munosib topilgach, O`zbekiston Prezidentining birinchi nutqidayoq "xalqni ma'naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va ma'naviy yuksaltirish" masalasi davlat rahbarining eng muhim vazifalaridan ekanligi alohida ta'kidlab o`tildi.

Milliy mustaqilligimizning ikkinchi yilida Prezident "O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li" risolasini e'lon qildi. Ushbu kitobning alohida bobi "Mustaqil O`zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb nomlandi va unda ilk bor xalq ma'naviyatini rivojlantirish masalalari batafsil tahlil etildi.

"Ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo`q joyda hech qachon baxt-saodat bo`lmaydi",-deb yozgan edi Prezident mustaqillikning dastlabki yillaridayoq. Keyinchalik «O`zbekiston XX1 asrga intilmoqda» asarida bu g`oya yanada muayyanlik kasb etib, ma'naviyat «insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg`otadigan qudratli botiniy kuch» sifatida ta'riflandi.1

Prezidentning ta'riflari shu yaxlit mohiyatga tutash botiniy qudratga aloqadordir, uni boshqa, ikkilamchi hodisalardan, moddiy voqelik unsurlaridan keltirib chiqarishga urinish muammoni teran ilg`amaslikni bildiradi. Bugun mustaqil va farovon O`zbekiston atalmish buyuk voqelikni vujudga keltirish uchun har bir insondan, millatning har bir vakilidan alohida ichki quvvat, cheksizlikka tutashuvchi botiniy kuch talab etilmoqda. Ana shu kuch har bir inson ruhida yashirin, deydi Prezident. O`zini mustaqil shaxs deb bilgan har bir inson uni o`zi uchun kashf etishi kerak. Buning uchun, avvalo, ruhimizdagi xudbin mayllarni, yolg`on hoyu-havaslarni, ro`yolarni engib o`tib, cheksiz qudrat manbaiga qalbimizni ochishimiz lozim1.

Umuman, qayd etish lozimki, O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o`zlarining deyarli har bir nutqlarida ma'naviyat masalasiga e'tibor qaratganlar, har bir kitobida alohida boblar ajratganlar. Ma'naviyat masalasining negizi, mazmun-mohiyati, inson va jamiyatdagi o`rni masalalariga bag`ishlangan alohida-alohida kitoblar e'lon qilganlar. "Istiqlol va ma'naviyat",

“Ma'naviy yuksalish yo`lida”, “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” kabi asarlari shular jumlasidandir.

O`zbekiston Prezidentining milliy ma'naviyat masalalariga bag`ishlangan fikr va mulohazalari alohida yirik jiddiy tadqiqot mavzusidir. Ammo mazkur tadqiqot yakunlarini kutmay turib ham, I. A. Karimov asarlarini shu yo`nalishda e'tibor bilan o`rganib chiqqan odam Prezident qarashlari milliy ma'naviyat nazariyasini shakllantirish yo`lida o`q tomirlarni aniq va muayyan ko`rsatib berishga qodirligiga amin bo`ladi. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda ma'naviy-axloqiylik mezonlari bilan bog`liq Prezident I.A.Karimov asarlarida bildirilgan fikr-mulohazalarga nazariy zamin sifatida tayanildi. Buning bir qator sabablari bor, albatta. Lekin, ularning eng asosiysi va etakchisi – yurtboshimizning fikr-mulohazalari bilan ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosdagi xulosalarning o`zaro uyg`un va muvofiq kelishidir.

Bu o`rinda birgina “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” nomli kitobidagi ma'naviyat masalalariga, ulardagi talqin va tahlilga e'tiborni qaratamiz. Shuni aytish lozimki, yurtboshimiz ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama keng qamrovli fikr-xulosalar orqali tahlil etganlar. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o`zi tomonidan bitilgan mulohazalarni har bir inson bilib olmog`i shart. Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar yurtboshimiz tomonidan quyidagicha belgilab berilgan:

“Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o`ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko`hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo`lib xizmat qiladi”.1

“Shu o`rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog`liq bo`lgan yana bir mezon – muqaddas dinimiz haqida alohida to`xtalib o`tishni zarur deb bilaman”1.

“Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o`ziga xos ta'sir o`tkazadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o`tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g`urur bilan ta'kidlash lozim”.

“Har qaysi millatning o`ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o`rni va ta'siri beqiyosdir”.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta'siri xususida to`xtalish albatta o`rinlidir. O`zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, etim-esirlarning boshini silash, to`y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko`pchilik bilan bamaslahat o`tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga

bo`lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalombor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o`zini-o`zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz "Mahalla – ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlini ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz".

"Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog`liqdir".

"Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo`lsa, so`z san'ati, badiiy adabiyotdir".

"Yana bir dolzab vazifa – o`sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o`g`il-qizimiz dastlabki, qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo`lishi kerak"1.

"...xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo`lgan meo`r-oqibat, insonni ulug`lash, tinch va osoyishta hayot, do`stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashtirib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar toboro muhim ahamiyat kasb etmoqda. ... bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi".

Keltirilgan iqtiboslardagi fikr-mulohazalarga tayanib aytish mumkinki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko`hna tarixiy yodgorliklar, muqaddas dinimiz, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlar, oila va mahalaning roli va ta'siri, ta'lim-tarbiya tizimi, so`z san'ati va badiiy adabiyot, ma'naviy tarbiyaga javobgarlik hissi va ma'suliyat bilan yondashish, shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, ajdodlarimizning tarixiy xotirasi ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar sanaladi. Yurtboshimiz ma'naviyat tushunchasining inson hayotida tutgan o`rni haqida ham quyidagi yakuniy xulosa beradilar: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg`ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonni uyg`otadigan bekiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar birinchi galda «insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg`ayishi», davlat, millat va shaxs rivojlanishining va kamolotining asosiy omili ekanligi, amaliy mehnat jarayonida yuzaga keladigan insonning bilimi, iste'dodi va qobiliyati, odob va axloq tushunchalari, uning etuklik natijasi hisoblangan iymon, e'tiqod, vijdon, insof,ixlos, shuningdek, insonning egallagan bilimi, amaliy faoliyatini umumlashtirishga xilma-xil yo`nalishlar berishga qaratilgan dunyoqarashdir. Binobarin, bularning hammasi "ma'naviyat"ning mohiyatini, asl negizini va tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Insonni ma'naviy-ahloqiylilik mezonlari asosida shakllantirish, Vatan mustaqilligini mustahkamlash, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, intellektual salohiyotli, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayonlar barkamol yosh avlodlar tarbiyasining asosini tashkil etadi. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi esa davlat va jamiyatga xizmat qiluvchi, Vatanga fidoiy, ahloqiy barkamol intellektual yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishga qaratilganligini hisobga olsak, barcha o`quv tarbiya muassasalarida ta'lim olayotgan o`quvchilar, eng avvalo, ma'naviyat tushunchasi bilan shaxs va millat ma'naviyati tushunchasi, milliylik va umuminsoniylik tushunchalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo`lmog`i zarur.

Shaxs ma'naviyati deganda biz jamiyatdagi har bir shaxsning ichki ruhiy holati, hatti-harakatlari, munosabatlari va boshqa qirralarini o`z ichiga oladigan ma'naviyatni tushunamiz. Prof. M.Imomnazarov bu tushunchaning mazmun-mohiyati haqida quyidagi xulosani bergan: “shaxs ma'naviyati har bir inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg`unligi darajasini aks ettiradi. Bu uyg`unlik har bir shaxsning Imoni, Ilmi, Mas'uliyati, Mehri orqali namoyon bo`ladi va Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg`ularida shakllanadi”1.

Ushbu muxtasargina xulosani imkoniyat darajasida asoslashga va uni izohlashga harakat qilamiz va yana ustoz M.Imomnazarov fikrlariga tayanamiz. Dastavval imon tushunchasi haqida so`z yuritamiz.

Nazarimizda, shaxs ma'naviyati eng avvalo, Imondan boshlanadi. Xalqimiz orasida «imonsiz», «imoni butun» degan so`zlar bejizga aytilmagan. Shuning uchun imon shaxs faoliyati va ma'naviyatida asosiy o`rinni egallaydi, uning olib borgan barcha hatti-harakati va faoliyatini baholashda keng qo`llaniladi. Bundan kelib chiqadigan yakuniy xulosa shuki, imon shaxs ma'naviyatining tarkibiy qismi va umuman, ma'naviyatning o`zak tomiridir. Imon insonning o`zi anglab etgan va to`g`ri yo`l deb bilgan Borliq haqiqatiga samimiy e'tiqodi sanaladi. Lekin bu erda shuni ta'kidlash joizki, ilmsizlik tufayli imonlikka, “imoni butun”likka erishib bo`lmaydi: ularning har ikkalasi ham bir-biriga chambarchas bog`liq jarayon, har ikkalasi ham shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. “Ilm - milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo`llaridan biri, Borliq haqiqatini anglab etishda bilimga, aql va tafakkurga tayanish”1 hosilasidir. Shuning uchun ham ilm nuri bilan har bir dil - ko`ngil, imon-e'tiqod «taqlidiy imon» sanaladi va aynan bu holat insondagi takabburlik xislati bilan birlashib aqidaparastlikka olib keladi. Natijada, shaxs ma'naviyatining mazmun-mohiyatiga katta putur etkazadi, xalq orasida obro`ysizlantiradi. Kelajak avlodning ma'naviy-axloqiylilik mezonlarini o`zlashtirishida va ular ongiga insoniy fazilatlarini singdirish jarayonida bunday holatga har birimiz alohida e'tibor berishimiz, mas'uliyatli va mehrli bo`lishimiz zarur.

Inson ma'naviyatida va uning ma'naviy kamol topishida imon, ilm, riyozat, mehr kabi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tayanch tushunchalari ham muhim rol o`ynaydi. Lekin, ularning hammasi insondagi ma'suliyat orqali yuzaga chiqadi, bunda ma'suliyat etakchilik qiladi. Inson ma'suliyatli bo`lsagina ilm va imonga erishadi, uni riyozat va mehr bilan umr dovonlaridan elkalab o`tiladi. Boshqacha qilib aytganda, inson Shaxs bo`lib shakllanar ekan, umri davomida yilma-yil o`zligini anglab boradi, bu o`zlikni anglash davomida esa ma'naviy kamolot pog`onalari bo`ylab yuksaladi.

Har bir inson, deb ta'kidlaydi, undagi ma'suliyatlilik haqida professor M.Imomnazarov, - bu yorug` olamda halol-pok umr kechirishi uchun atrof voqelik, ya'ni ijtimoiy muhit nisbatan muvofiqroq yoki nomuvofiqroq bo`lishi mumkin. Halol rizq topish, o`zi va oilasi iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash insonning Shaxs sifatidagi eng birinchi vazifasi bo`lsa, uning ikkinchi muhim vazifasi o`zi yashab turgan ijtimoiy hayotni takomillashtirish ishida ishtirok etishdir. Ijtimoiy hayot bugungi sharoitda yagona davlat hududida ko`pchilik tomonidan qabul qilingan o`z qonun-qoidalariga ega. Ana shu muayyan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida umummilliy farovonlik va yuksalishi yo`lida faol ishtirok etish vazifasini fuqarolik mas'uliyati deyish mumkin.

Odatda ko`pchilik halol rizq topish va oila tashvishlarini hal qilish vazifasini o`z gardanida deb biladi. Ammo fuqarolik mas'uliyatiga ko`p ham e'tibor bermaydi.

Mas'uliyat – har bir insonning o`z qadamini qo`yishidagi shaxsiy javobgarligi, har bir hatti-harakatining oqibatini o`ylab bosgan qadami. Boshqacha aytganda, “mas'uliyat – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati, o`zi anglab etgan va to`g`ri deb bilgan Borliq haqiqatiga amalda sadoqatni saqlashi, inson erkin irodasi bilan o`zini dunyodagi barcha mavjudot uchun mas'ul”1 va javobgar deb bilishi, his qilishidir. Bu erda shuni hisobga olish lozimki, jamiyatning har har bir sohasida, kundalik hayotning har bir yo`nalishida shaxs ma'naviyatidagi mas'uliyatlilik bor: masalan, biror xizmat yoki rahbarlik vazifasidagi mas'uliyatlilik, ilm-fanni puxta o`zlashtirib olishdagi mas'uliyatlilik, oila va farzandlar tarbiyasidagi mas'uliyatlilik va hokazo. Bundan kelib chiqadigan yakuniy xulosa shuki, shaxs ma'naviyatidagi mas'uliyatlilikning qamrovi keng, u nafaqat shaxs faoliyatidagi ma'naviyat bilan bog`liq, balki jamiyatdagi hodisa-voqealar va amalga oshirilayotan ishlar mazmuni bilan ham chambarchas bog`lanib ketadi. Shu sababli har bir O`zbekiston fuqarosining Yurt mustaqilligini mustahkamlash, millat taqdiriga kuyunchaklik bilan munosabatda bo`lishiga erishish orzusida tinib-tinchimagan Prezidentimiz har bir bob, har bir suhbatida bizni faollikka, ijtimoiy fidokorlikka undaydi. Hozirgi mustaqilligimiz mustahkamlanayotgan bir paytdagi jamiyat miqyosdagi eng katta va dolzarb vazifa – “Vatan manfaati, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo`yadigan, qalbida o`ti va erk tuyg`usi bor, g`ayratli, kuyinchak” yoshlarni

ma'naviy-axloqiylilik mezonlariga to`liq javob bera oladigan darajada tarbiyalash, ularda mustaqillik his-tuyg`ularini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Ana shundagina hammamiz bu sohadagi fuqorolik mas'uliyatlilikni his qilgan, vatan va jamiyat oldidagi burchimizni baholi qudrat bajargan hisoblanamiz.

Shaxs ma'naviyatida muhim rol o`ynagan Ilm, Mehr, Ma'suliyat kabi tayanch tushunchalarning ma'no-mazmunini izohlashda yana professor M.Imomnazarov xulosalariga va fikr-mulohazalariga bevosita tayanamiz. Ilm ma'rifatning yana bir buyuk o`chog`i. Uni Shaxs kamolotining ikkinchi bosqichi deb hisoblash mumkin. Agar bolaning ilk tarbiyasi ko`proq atrofidagi kattalardan o`rganish, o`qigan-eshitgan ertak qahramonlaridan ibrat olish asosida bo`lsa, o`smir yoshiga o`tishidan uning shuurida hayot hodisalariga tahliliy yondoshuv uyg`onadi. Maktabda ham shu sababli alohida fan asoslaridan ta'lim berish 6-7 sinflardan boshlanadi. Maxsus ilmlarga chuqur kirib borish esa oliy o`quv yurtlarida amalga oshiriladi. Demak, ilmiy tafakkurning shakllanishi balog`at yoshi bilan bog`liq. Albatta, hayotga ilm asosida yondoshuv barchada bir xil darajada bo`lish qiyin. Haqiqiy ilmga qobillik alohida iste'doddir.

Ilm - tafakkur bilan bo`ladi, axborot yig`ish ilmga tayyorgarlik bo`lishi mumkin, undan ortiq emas. Umr bo`yi taom pishirmoq uchun sabzi-piyoz archib ovora bo`lgan, ammo olov yoqib, qozon qizdirmagan odam ochlikdan o`lar, ammo qorni to`ymas. Ilm - asli ajdodlar ibratidir, o`tganlar, biz ko`rmaganlar haqida xabar orqali ibratdir. Payg`ambarimiz hayoti - ibrat, Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati ibrat, "Jome' as-Sahih" kitobi esa ilmdir. Forobiyning ilm yo`lidagi fidoiyligi ibrat, "Fozil shahar fuqarolarining qarashlari" risolasi esa ilmdir. "qonun fi-t-tib" - ilm, Ibn Sinoning ilmga chanqoqligi esa ibratdir.

Biz Forobiy va Ibn Sino ilmini o`zlashtirishga astoydil bo`lmasak, ammo farzandimizga ularni ibrat qilib ko`rsatsak, "Jome'-as-sahih"ni o`zlashtirmasdan payg`ambarimizga mehru sadoqatdan lof ursak, riyodir, munofiqlikdir, bu bilan faqat o`zimizni insonlar va Alloh oldida sharmanda qilamiz, gunohlarimizni ko`paytiramiz, jaholatimizni fosh etamiz. Ammo jahondagi barcha ilmlarni inson egallab ulgura olmasligi ham ma'lum. Dunyoning ishi ilm va farosat bilan bo`lur. Darvoqe - farosat ham Allohning in'omi - ma'naviyat nuridir. Inson o`ziga nima va qay darajada lozim ekanligini farosat bilan (va farosatiga yarasha) aniqlab oladi. Sodda bir misol: Ibn Sinoning "qonun-fi-t-tib" kitobini mukammal o`zlashtirmagan kishini ayblab bo`lmas, Inson ma'naviy kamoloti - bu bilan belgilanmas. Ammo har bir shaxs o`z sog`lig`ining qadriga etish darajasida, har bir ona o`z farzandini sog`lom voyaga etkazish zarurati darajasida tib ilmidan bahramand bo`lmog`i ayni ma'naviy kamolotga ishoradir.

Mehr ham huddi imon, ilm, mas'uliyat kabi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tayanch tushunchalaridan bo`lib, u shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy

ma'naviyatimizga xos ma'rifiy yo`llaridan biri sanaladi. Uning asl mazmun-mohiyati va vazifasi insonlarga, tabiat mavjudotlariga, umuman, har bir ishga beg`araz fidoyilik bilan munosabatda bo`lish va ifodalashdan iborat. Xalqimiz orasida "mehr ma'rifatdan boshlanadi", "mehrli, ma'rifatli odamda" degan tushuncha tez-tez qo`llanadi. Kuzatishimizcha, bu tushuncha ikki xil vazifani bajarishga xizmat qiladi. Birinchisi, milliy xalq pedagogikamizda "inson ko`nglini tushunish va unga mehr ko`rgazish bilan tarbiyalash" vazifasini bajarsa, ikkinchisi – mumtoz adabiyotimizda, aniqrog`i, Alisher Navoiy talqinida, "insonning boshqa bir insonga bo`lgan beg`araz muhabbati tufayli xudbinlik balosidan forig` bo`lish va Borliq haqiqatini anglab etish" vazifasini bajaradi. Bularning hammasi shaxs ma'naviyatida alohida o`rin tutadi.

"Buyuk shoir pok insoniy mehrni ma'naviyatning tug`rosiga aylantirdi, deb alohida ta'kidlaydi professor M.Imomnazarov, - Navoiy ma'naviyati timsolida e'tiqod va ilm, iroda qudrati va mehr, fidoiylik va donishmandlik yagona mohiyat kasb etib, millat ma'naviyatini kamolotning oliy bosqichiga olib chiqdi.

Asl ma'nosiga diqqat qilsak, o`zbek tilidagi "mehr" so`zi Navoiylar davrida "majoz ishqi", "xos ishqi" deb ta'riflangan tuyg`uning mohiyatini ifodalaydi. Ruslarning achchiq maqollaridan birida "lyubov zla"... deyilgan jumla bor. O`zbekning "mehr" tushunchasida ana o`sha "zlo" yo`q, g`araz yo`q. Ota va ona mehri, farzandning o`z qiblagohi va volidasiga bo`lgan mehri, og`a-ini, opa-singillar aro mehr, Vatan mehri, tabiat va undagi turli jonzotlarga nisbatan mehr tuyg`usi, do`st mehri - bularning barchasi g`arazdan xoli, tabiiy va samimiy mehr namunalaridir. Nafaqat inson bolasini, balki turli hayvonlarning jajji bolachalarini ko`rganda inson dilida ajib shirin tuyg`u qo`zg`oladi. Begunoh go`dakning ma'sum qiyofasi, jovdirab sizdan mehr kutib turgan ko`zlari insonni befarq qoldirmaydi, beixtiyor jilmayasiz, erkalab so`zlar aytgingiz keladi. Mehr tuyg`usi inson uchun ulug` ilohiy tuhfadir. Bu tuyg`udan inson o`zini mahrum qilsa, bu dunyoning o`zida do`zax azobi o`rtanishida qoladi. Chunki inson birovga mehr baxsh etmay, birovdan mehr ko`rmay yashay olmaydi".

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqimiz orasida mehr tushunchasiga yaqin bo`lgan yana bir qator so`zlar, masalan, oqibat, muruvvat, muhabbat, shafqat kabi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tayanch tushunchalari ham qo`shilib, uning mazmun-mohiyatini yanada to`ldirishga xizmat qiladi. Natijada, ma'naviyatning insoniy negizlarini tashkil qiladigan mehr-oqibat, mehr-muruvvat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat kabi yangi mag`zi to`q va qamrovi keng tushunchalarni hosil qiladi. Bunday tushunchalar xalq orasiga batamom singib ketgan va oxir-oqibatda mehr-oqibatlilik, mehr-muruvvatlilik, mehr-muhabbatlilik, mehr-shafqatlilik kabi qator insoniy fazilatlarning nomlarini ifodalabgina qolmasdan, balki ularni diliga va faoliyatiga jo qilgan insonlarda yuksak ma'naviyatini ham hosil qiladi.

“Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar, - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz, - ... asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir.

Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo`lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko`rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo`shnining qo`shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg`un bo`lib yashashini, etim-esir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko`rsatish, sidqidildan, beg`araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi”.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqorida ta'kidlangan tayanch tushunchalari mazmunining ijtimoiy-tarixiy va pedagogik asoslarini ochishga harakat qilaylik. Inson qalbi nihoyatda nozik: u doimiy ravishda ma'naviy jihatdan alohida e'tiborni, ruhiy jihatdan esa alohida parvarishni talab qiladi. Bu o`rinda, kuzatishlarimizni dalillash uchun xalqimizga xos birgina “bolajonlik fazilati” tushunchasining ma'nosini va uning takomilini ko`zdan kechiraylik. Ajdodlarimiz azaldan “bolam-chaqam” deb yashagan va hozir ham shunday, bundan keyin ham shunday bo`lishi tabiiydir. Ota-bobolarimizning birgina “bolam-chaqam” degan so`zida katta ma'no bor: unda farzandlar, kelgusi avlodlar ma'nosi mujassam. Biz ta'kidlamoqchi bo`lgan fikr shuki, xalqimiz “bolasi va chaqasi”ga har doim mehr beradi, oqibat ko`rsatadi, shafqat qiladi va muhabbatli qilib tarbiyalaydi. Ularda mehr-oqibatlilik, mehr-muruvvatlilik, mehr-muhabbatlilik va mehr-shafqatlilik kabi eng sara insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Ota-onaning mehrini, oqibatini, muruvvatini, shafqatini va muhabbatini ko`rgan, o`zida mujassamlashtirgan imoni butun har qanday farzand ham eng avvalo oila a'zolariga va avlodiga beradi, ularning qalbiga singdiradi. Ota-onasidan yuqtirgan, hayotda o`rgangan va o`zlashtirib olgan barcha insoniy fazilatlar va xislatlarni bus-butunicha yana kelgusi yangi avlodlarga qaytaradi.

Tarixiy milliy tarbiyamizdagi bunday uzviylik har doim davom etib ketaveradi. Bu hayot qonuniyati, milliy tarbiyaning asosi, shaxs ma'naviyatidagi insoniylik negizining yana bir tasdig`idir. Shuning uchun ham diniy va dunyoviy adabiyotlarda ota-onani e'zozlagan, farzandiga yaxshilik fazilatlarini qunt bilan singdirgan ulug` zotlar haqida ko`pgina ibratli gaplar yozilgani bejiz emas.

Ibrat tushunchasi – ma'naviy-axloqiylik mezonlari bilan bog`liq ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tayanch tushunchalaridan biri, ayni vaqtda, milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo`llari bilan bog`liq tushunchadir.

Xalqimiz orasida va keng iste'molda “Bolaning o`zi hamma narsaga qiziqadi-da”, “Bola qiziquvchanda, hamma narsani qiziqib so`rayveradi-da” degan qutlug` iboralar bor. Bu gaplar bejizga aytilmaydi: ularning ma'no-mazmuni katta pedagogik-ruhiy asosga ega. Farzand bu

yorug` dunyoga kelganda, dastlab onani, otani, so`ngra oila a'zolarini, masalan, buvisi va bobosini, akalari-opalarini taniydi, yashash ishtiyoqi bilan hayotga intilarkan, dastlabki fikri va hatti-harakatatini ibratdan boshlaydi. Ya'ni, ona, otadan ibrat oladi. Ularning hatti-harakatlarini o`rganadi, dastlabki tasavvurlarni yana shulardan olib, voqelikka o`z munosabatini shakllantira boshlaydi. Bu esa uning ibrat olishidan, ma'rifatning dastlabki yo`lida hayotiy ilm olishidan darak beradi. Yoshi ulg`aygan sari to umrining oxirigacha bu dunyoning sir-asrorlaridan, zamondoshlarining faoliyatidan, oqillarning tadbirkorligidan, tashabbuskorlarning g`ayratidan, hayoli kishilarning andishalaridan, onalarning mehridan, otalarning bag`rikengligidan, keksalarning ulug`vorligidan ibrat olib yashaydi: o`ziga ehtiyoj bo`lgan bilimlar va hayotiy tajribalar to`playdi.

Ko`ramizki, inson zotining ibrat olish yo`llari hayotda xilma-xil: ma'naviyatni to`plashga, bilim saviyasini oshirishga, irodasini mustahkamlashga sabab bo`ladigan vositalar juda ko`p. Masalan, yomon kishidan yomonlik ko`rib, undan jabr tortib, uzoqlashishi yoki yomon xislatlaridan guvoh bo`lib o`ziga yarasha xulosa chiqarishi ham ibrat sanaladi. Yoki uning tamomila teskarisini olaylik: yaxshidan yaxshiliklar ko`rib, yaxshilik fazilatlarini o`zida singdirib, unga ergashib, hammmaslaklik qilish ham ibrat bo`la oladi. Yoki o`g`rilarning ishidan xabardor bo`lib nafratlanishi ham har bir inson uchun ibrat. Kundalik hayotdagi onda-sonda uchrab turadigan fohishaning fojiasi, giyohvandning achchiq qismati, sotqinlarning tubanligi ham iymoni butun har bir inson uchun ibrat bo`la oladi.

Yana shuni ta'kidlash zarurki, - deya fikr bildiradilar prof.M.Imomnazarov, - ibrat ola bilish va uni yuqtirish xislati ham inson ma'naviyatining asl belgisi, ma'naviy-axloqiylilik fazilatining muhim tarkibiy qismi bo`la oladi. Lekin ibrat taqlid emasligini hisobga olish zarur. Agar bordi-yu ibrat taqlidga aylansa, inson ma'naviyatining tanazzuli boshlanadi.

Ibrat inson faoliyatining turli xil ko`rinishlarida uchrashi mumkin. Masalan, Islom ma'naviyatida hazrati Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning umr bo`yi riyoziyot chekib, hadislar to`plashi, ularni tahqiq etib “sahih”, ajratib, tasniflab berishlari muxaddislar uchun ibrat bo`ladi. Shuni yana alohida ta'kidlash lozimki, Rasululloh (s.a.v.) hadislarining eng muhim va salmoqli qismidagi namunalar har bir insonda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga, ma'naviy-axloqiylilik mezonlarini egallab olishga qaratilganligini ular bilan tanish bo`lgan har bir inson juda yaxshi biladi va buni izohlashga hojat yo`q. Payg`ambarimizning hadislaridagi ota-onaga ehtirom, ilmga intilish va uni egallash, sabr-qanoat, shukronalikka da'vat, o`zaro mehr va oqibat, hamjihatlilik, mehmondo`stlik, etimparvarlik, vafolilik, sadoqatlilik, mehnatsevarlik, halol luqmani sharaflash, kamtarlik, kamsuqumlilik, samimiyatlilik va rostgo`ylik xislatlarining inson ma'naviy tarbiyasidagi o`rni, hayotiy xulosalari va ko`rsatmalari insoniyat uchun bebaho

ma'naviy qadriyatlar silsilasi, mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bulardan ma'naviy-ma'rifiy ozuqa olishimiz ham ibrat sanaladi.

Yoki Sohibqiron Amir Temur bobomizning adolat bilan davlatni boshqarishi davlat rahbarlari uchun ham ibrat. Alisher Navoiyning "Xamsa"ni yaratishi ijodkorlar uchun ma'naviy ibrat bo`la oladi. Bunday misollar millat tarixidan, milliy ma'naviyat sahifalarida juda ko`plab keltirish mumkin.

"O`tmish ajdodlarimiz tarixiga azar tashlasak, ular barcha insoniy fazilatlardan ibrat olib yashaganligining, qiyinchilik, mehnat-u zahmatlardan cho`chimaganligining guvohi bo`lamiz. Muhammad Muso al - Xorazmiyning quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz: "O`tmish davrlarda o`tgan olimlar fanlarning turli tarmoqlari sohasida asarlar yozish bilan o`zlaridan keyingi keladiganlarni nazarda tutardilar. ... ulardan biri o`zidan avvalgilaridan qolgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o`zib ketardi, uni o`zidan keyin keluvchilarga meros qoldiradi, boshqasi o`zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi... va o`zi qilgan ishidan mag`rurlanmaydi". Bu so`zlar barcha olimlar, ma'rifatli kishilar uchun ibrat manbai bo`lishi zarur. Ajdodlarimiz merosini, ular yaratgan qadriyatlarni hozirgi avlod chuqur anglab, kelgusi avlodga etkazishi uchun uning axloqiy burchidir".

Shaxs ma'naviyati va uning ta'lim-tarbiyadagi o`rni haqida gap ketar ekan, yuqorida izohlangan imon, ilm, mas'uliyat va mehr tushunchalaridan tashqari, insonning his-tuyg`ularida ifodalanadigan, o`zligini ko`rsatadigan Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog`liq tayanch tushunchalar ham bor. Bu tushunchalarning shaxs ma'naviyatida qaydarajada o`rin egallaganligi haqida so`z yuritganda, eng avvalo, insonning o`zi shu tushunchalarga qay darajada munosabatda bo`lishini ham hisobga olish zarur, busiz shaxs ma'naviyatining mazmun-mohiyati to`lig`icha ochilmay qoladi.

Bu o`rinda Vatan tushunchasining ma'no-mazmuni va uning takomil bosqichlarini ko`rib chiqamiz. Vatan nihoyatda u keng qamrovli tushuncha bo`lib, ya'ni milliy ma'naviyatimizga xos eng oliy ma'naviy qadriyat sifatida har xil ma'nolarda qo`llanadi. Agarda ana shu talqinlarning hammasi hisobga olinmasa, qiyosiy tahlildan o`tkazilmasa va bir yaxlit xulosaga kelinmasa, vatan tushunchasining ilmiy, islomiy va xalq talqinlardagi ma'nolari endigina o`sib kelayotgan yosh avlod ongiga hech ham singmaydi. Shu nuqtai nazardan biz bu o`rinda masalaning ana shu jihatlariga e'tiborni qaratamiz.

Vatan deganda qanday tushuncha ko`z oldimizga keladi? Vatanni anglash va tushunish bosqichlari bormi? Agar bor bo`lsa, ular qanday bosqichlardan iborat bo`lgan? kabi qator savollar birin-ketin tug`ilishi mumkin, bu tabiiy, albatta.

Vatan – bu makon, kindik qoni to`kilgan muborak uy, o`rin-joy, oila, urug`-aymoq, qarindosh-og`ayni, jamoa va eldoshlar, millat, mamlakat va ana shu ona sayyoradir. Albatta bu

tavsif umumiy, hammaga tushunarli va soddagina tavsifdir. Ilmiyroq qilib aytganda, “inson – ruhning Borliq haqiqati bilan uyg`unlashuvining eng dastlabki darajasi, har bir insonning muayyan moddiy makonga nisbatan ma'naviy munosabatining”1 hosilasidir. Bu tushuncha yuqorida qayd etilganidek, keng qamrovli va ko`p ma'noli, lekin ularning hammasi birlashadigan yaxlit tushunchadir. Vatan tushunchasi moddiy makonga nisbatan ma'naviy munosabatni bildirgani uchun ma'naviy qadriyat hisoblanadi, eng oliysi sanaladi. Vatan tuyg`usi, yurt tuyg`usi esa inson ma'naviy kamolot darajasidan xabar beruvchi ilk muhim belgidir. Shuning uchun ham bu tushunchaning ma'no ko`lami juda keng va yana o`z ichki takomil darajalariga ega. Ular quyidagilardan iborat:

“Ruh bilan badan - Vatan” tushunchasi. Bu tushuncha islomiy ta'limotga tegishli bo`lib, tasavvuf shayxlaridan mashhur Bahouddin Naqshband hazratlari “Safar dar Vatan” deganlar, ya'ni inson ruhi badanni, moddiy vujudni tark etmagan holda Haq bilan birlashuvi, ko`ngil ko`zgusini poklab, qalbini tozalab, unda janobi Haq jamoli aks etishiga erishish zarur. Ana shu me'yor islomda Tavhid e'tiqodining bosh talabi va mezoni sanaladi. Xalqimiz orasida “bu ko`ngilda, ko`ngil vatanida” degan qutlug` bir ibora bekorga aytilmagan. Chunki, inson zoti Olloh tomonidan moddiy vujud sifatida yaratilgan ekan, uning yashashi va hayot kechirishi uchun moddiy ehtiyojlar zarur, busiz ularning yashash tarzini sira ham tasavvur qilish mumkin emas. Faqat inson o`z vujudini, undagi har bir a'zosini, dinini va qalbini pok saqlashi zarur, ayni paytda ehtiyot qilishi ham kerak. Bunday ma'nan poklanishning eng ibtidosi Haq oldida uning mas'ulligidan darak beradi. Nopok vujudda pok ruhni, toza qalbni, mehr-muruvvatni, iymonlilik va e'tiqodlilikni tasavvur qilib bo`lmaganidek, ajdodlarimiz har bir davrda bu masalaga alohida e'tibor bilan qaraganlar: nopok shaxslarning hatti-harakatlarini, “ko`ngil vatanida”gi razil niyatdlari-yu va hatto ularning topgan makonini ham qattiq qoralaganlar. Bu mulohazaga mumtoz adabiyotdan, ayniqsa, tasavvuf adabiyoti namunalaridan, xalq og`zaki pedagogikasidagi dostonlardan istagancha misollar keltirish mumkin.

Vatan – oila, turar-joy, obod maskan. Bu tushunchaning izohi, mazmun-mohiyati birinchisiga qaraganda birmuncha soddaroq va ko`pchilikka tushunarliroqdir. Fikrimizni izohlaymiz: xalq orasida “palonchi vatanli bo`libdi, o`ziga bir vatan solibdi” degan xalqona ibora bor. Nazarimizda, “palonchi vatanli bo`libdi” birikmasi “oila quribdi”, “ruzg`orli bo`libdi”, - degan ma'noni anglatadi. “O`ziga bir vatan solibdi” iborasi esa turar-joy, uy-maskan ma'nosini ifodalaydi. Har ikkala birikmaning ma'nosi mantiq jihatdan asosli. Yangi qurilgan oila uchun eng avvalo, biror maskan, xonadon, uy-joy zarurki, busiz ular (kelin-kuyov) muqim holda yashab bo`lmaydi, oilaviy muhit yarata olmaydi. Modomiki, kundalik hayot talabi shunday ekan, qolaversa, yangi oila a'zolarining o`zlari ham moddiy vujud ekan, eng avvalo, ularning tinch-axl yashashi uchun bir obod go`shaga, bo`lajak farzandlari bilan istiqomat qilish uchun muayyan bir

makonga ehtiyoj sezadi. Xalqimiz, millatimiz, ajdodlarimiz va ota-bobolarimiz doimo ana shu ma'nodagi vatanga, ya'ni oilaga, turur joyga qadimdan alohida e'tibor berib kelganlar. Ular qaerda qo`nim, yashash va tirikchilik uchun biror makon topgan bo`lsalar, o`sha erni o`zlarining qalb quri, mehr-muhabbati va halol mehnati bilan obod qilganlar, rizq-ro`zi topib, farzandlar tarbiyasi bilan astoydil shug`ullanib yashaganlar. O`sha makonda mozor qilganlar, uy-joy, imoratlar solganlar, bog` va chorbog`lar yaratganlar. Bularning hammasi shu makonga ishtiyoq tuyg`usi, urug`-aymoqqa muhabbat tuyg`usi, ajdodlari quyilgan mozorga hurmat va yurt tuyg`usi tufayli bunyodga kelgan. Ko`ramizki, Vatan tushunchasining ma'nosi dastlabkisiga qaraganda yanada kengayib, talqinidagi ma'noning qamrovi anchagina kengayib borayaptiki, buni keyingi fikrlarda ham kuzatamiz va izohlashga harakat qilamiz.

Vatan – har bir inson uchun o`zi tug`ilib o`sgan diyori, bolaligi o`tgan maskani (qishlog`i, mahallasi, shahri, tumani yoki viloyati). Yuqoridagi ta'kidlangan fikrlarning bir qismi ham shu ta'rifga va tavsifga taaluqli, ta'rifda berilgan va anglatgan ma'noga ega. Buning boisi shuki, inson kindik qoni to`kilgan qutluq go`shaga, bolaligi va o`spirinligi o`tgan maskanga, o`ynab-o`sgan mahalla, guzar yoki shaharga doimo mehr ko`zi bilan qaraydi. Bordi-yu undan qisqa muddatda uzoqlashsa yoki taqdir taqozasiga ko`ra boshqa joyda makon qurib yashasa yoki xizmat qilsa ana shu joyni sog`inadi, unga umri davomida intilib yashaydi. Bordi-yu, yana tasodifan boshqa shaharda bolaligi o`tgan joydagi hamqishlog`ini, hamyurtini, mahalladoshini ko`rib qolsa, unga darhol o`zgacha mehr bilan talpinadi, eng yaxshi qalb so`zlari va hatti-harakatlari bilan munosabatda bo`ladi. Insondagi mana shunday tabiiy his-tuyg`u ham vatan tufaylidir. Undagi tor ma'nodagi yurt tuyg`usi, keng ma'nodagi vatan tuyg`usi bilan birlashib ketadi, millat tuyg`usiga yaqinlashadi.

Vatan – O`zbekiston, mustaqil yurt, mustaqil mamlakat. Vatan tushunchasining oldingi talqinlari biroz tor ma'noda ketma-ket qo`llanganligini kuzatdik. Endi yanada kengroq ma'nodagi talqiniga e'tibor beraylik. Biz alhamdulloh musurmonmiz, alohida xalqmiz, millatmiz, uning nomi O`ZBEK, yashaydigan joyimiz – O`ZBEKISTON, qadim go`shamizning ulug` va shonli tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari, san'ati, adabiyoti, folklori, pedagogikasi va hokazolari bor. Ularning hammasi milliy, millat nomi bilan ataladi. Hozirgi vaqtda mustaqil yurtmiz, mamlakatimiz mustaqil, demakki, vatanimiz mustaqil: o`z tili, gerbi, madhiyasi, bayrog`i, valyutasi va hududiy makonlari bor. Shuning uchun ham O`zbekistonda, mustaqil yurt va mamlakatda yashayotan barcha aholi qatlamlarini ona-vatandan faxrlanish tuyg`usi birlashtiradi. Bu tuyg`u ko`zimizni, dilimizni yashnatib yuboradi. Ona-yurt sarhadlariga, uning ko`rki-jamoliga qalb ko`zi bilan qaragan har bir yuksak ma'naviyatli insongina Vatanni yaxlit bir holda o`z qalbiga singdira oladi.

“Bu haqda gapirar ekanmiz, - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz, - ayni vaqtda muhim bir masalaga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda yashayotgan har bir inson o`zini eng avvalo O`zbekiston fuqorosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg`ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo`lgan “mo`'jaz vatan”ning, tug`ilib o`sgan shahar yoki qishloqning qadri va ahamiyatini aslo kamaytirmaydi. Biroq, shuni esda tutish kerakki, haddan tashqari bo`rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik millatning, xalqning jipslashuviga halaqit beradi.

Biz vatan tuyg`usini mana shunday yaxlit holda, ya'ni dunyoda yagona o`zbek millati bor, xorazmlik, farg`onalik, surxondaryolik o`rtasida hech qanday milliy farq yo`q, ularning barchasi o`zbek xalqining farzandi deb anglashimiz, yosh avlodni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarur”.

Ushbu mulohazalardan kelib chiqadigan yakuniy xulosa shuki, vatan tushunchasining bosh va eng etakchi, keng ma'nosi – yurtning nomi (O`zbekiston), mamlakat (mustaqil davlat), milliy davlat (mustaqil mamlakat) nomlari bilan birgalikda qo`llanadi. Chunki bu ma'noda ona-zamin, millat va davlat tushunchalari birlashadi, uyg`unlashadi va aks etadi. Ushbu xulosaning ijtimoiy, tarixiy va pedagogik-ruhiy asoslariga diqqat qilaylik. Millat tuyg`usi bo`lmagan insonda o`z go`shasi va tug`ilib o`sgan joyiga, o`ynab-kulib yurgan mahallasiga, ma'rifat nurlarini olgan o`quv-tarbiyaviy maskanlarga, shuningdek, o`z oilasi, qarindosh-urug`lari, yor-do`st, birodorlariga sog`inchlik bilan intilish bo`lishi mumkin. Ammo, tom ma'noda va keng talqinda vatan mehri bo`lmaydi, qisqasi, fidoyilik darajasidagi vatan tuyg`usi unga begona bo`ladi. Millat tuyg`usi vatan tuyg`usi bilan birlashgan joyda haqiqiy va chinakam Shaxs vujudga keladiki, unda ma'naviy kamolot, ma'naviy-axloqiylilik va yuksak mas'uliyatlilik his-tuyg`ullari shakllanadi. Bular esa Shaxs ma'naviyatining eng sara fazilatlari: vatan, yurt va millat birligi tuyg`ularining eng oliy nuqtalari hisoblanadi.

Vatan tushunchasining keng qamrovli ma'nolari haqidagi yuqoridagi fikr-mulohazalar bizga insonning moddiy makonga nisbatan ma'naviy munosabatiga ko`ra, vatanni anglash bosqichlarini quyidagi tartibda belgilash imkoniyat beradi:

a) Ruh bilan badan – Vatan.

b) Vatan – oila, makon, turar joy va obod maskan.

v) Vatan – har bir inson uchun o`zi tug`ilib o`sgan diyori, o`lkasi – qishlog`i, mahallasi, guzari, shahri, tumani yoki viloyati.

g) Vatan – O`zbekiston, mustaqil yurt, mustaqil mamlakat (bu tushuncha millatni anglash bosqichidagi keng ma'nodagi tushuncha hisoblanadi).

Yuqorida ta'kidlanganidek, shaxs ma'naviyatining mazmun-mohiyatining belgilaydigan va ifodalaydigan, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bevosita bog`liq Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat

kabi tushunchalari ham bor. Ularning anglatgan ma'nolari ham bir-biri bilan chambarchas bog`liq. Shaxs va millat tushunchalarining ma'nolariga e'tibor berilganda inson tushunchasini ham nazardan qochirmaslik zarur.

Inson – ma'naviy kamolot imkoniyatiga ega bo`lgan moddiy (biologik) mavjudot. Aslida insonning ijtimoiy majudot ekanligi ham ma'naviy kamolot imkoniyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Shaxs esa o`z ma'naviy ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan, ya'ni o`zligini anglay olgan inson deb atash mumkin.

Ma'naviy-axloqiylilik nuqtai nazaridan shaxs tushunchasiga yondashganda ikki holatni ko`zda tutmoq lozim. Birinchisi – har bir boshqa insonni Shaxs sifatida qabul qilish ishimiz zarur. Chunki uning dilida qanday fikrlar va maqsadlar borligini biz bilmaymiz, shu sababli zohiriy ko`z bilan undan ma'lum bir xatolar izlashimiz, unda ma'naviy noqisliklar, qusurlar va ayblar ko`rishimiz inson odobiga ham, ma'naviy-axloqiylilik mezonlariga ham mutloqo to`g`ri kelmaydi. Ikkinchisi – har bir inson o`zini Shaxs sifatida anglar ekan, ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun harakat qilmog`i, o`zligini anglash jarayonini uzluksiz davom ettirmog`i zarur. Sodda qilib aytganda, o`z ustida tinmay ishlashi, malakasi va bilimini oshirishi, ma'naviy-axloqiylilik mezonlarini, yaratuvchanlik va ijodkorlik qobiliyatlarini tinmay, uzluksiz ravishda egallab borishi zarur. Agarda ana shu “o`z ustida ishlash” jarayoni to`xtab qolgudek bo`lsa, uning Shaxs sifatidagi tanazzuli boshlanadi.

Millat tushunchasi “shaxs ma'naviyatida uning his-tuyg`ulari orqali yuzaga chiqadi. Aslida millat tuyg`usi milliy ma'naviyatimizga xos eng oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqqati bilan uyg`unlashuvining uchinchi darajasi, har bir insonning muayyan (o`z tili, davlati, ma'naviyati, siyosati va hududiy birligiga ega bo`lgan) insonlar uyushmasiga o`zining aloqador ekanligini anglab etishidir”1. Shaxs ma'naviyatida inson (shaxs) bilan millat tushunchalari bir-biri bilan bog`liq: aslida shaxslarsiz millatni yoki uning aksi, millatni shaxslarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Har bir shaxs, biror elat yoki millatga mansub bo`lmay iloji yo`q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashay olmaydi. Prezidentimizning qutlug` bir iborasi bilan aytganda, har bir inson “o`zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o`ylab, mehnat qilib, yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi”1 Bundan kelib chiqadigan yakuniy xulosa shuki, shaxs ma'naviyatini millat ma'naviyatidan hech bir va hech qachon ajratish mumkin emas.

Milliy ma'naviyat tushunchasi muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo`lgan bag`oyat qimmatli ma'naviy boyliklarini ifodalaydi. Aslida, milliy ma'naviyat boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qiladigan ma'naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma'naviyat boshqa xalqlarda ham muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo, milliy ma'naviyatda boshqa xalqlarning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi. Milliy ma'naviyat avvalo tarixiy xodisa ekanligi

bilan ajralib turadi. U bir kunda bir yilda yoki o`n yilda mukakmmal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat takomillashuvi millat tarixi bilan chambarchas bog`liqdir.

O`zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g`oyat qadrli. Xalqimizning hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari, ma'naviy-axloqiylik mezonlarining asosiy qismi mumtoz milliy ma'naviyatimizning bevosita davomi sanaladi. Ularga do`stlik, o`rtoqlik mehmondo`stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomilalik, jamoa ichida o`zini tuta bilishlik, xayolilik, hurmat bilan muomila qilish, ozodalik, xushchaqchaklik, xushfe'llik, mardlik, samimiylik, lutfi karamlilik, ro`zg`orparvarlik, shirinso`zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostguylik, halollik, or-nomuslilik, to`g`rilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, mehnatsevarliik, o`tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g`urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlar, insoniy xislatlar va sifatlar kiradi.

O`zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko`rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat,kamtarlik, halollik, iymon mehnatsevarlik, mehmondo`stlik singari milliy ma'naviy-axloqiylik hislatlarimiz hamisha barqarordir. Chunki bu ma'naviy hislatlar millatimizning, har birimizning qon-qonimizga singib ketgan. Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to`g`risidagi ma'naviy-axloqiylik mezonlariga mutloqo zid bo`lgan xorijiy xalqlar an'analari hozirgi yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o`tkazmoqda. Shu tufayli jamiyatimizda birozgina ma'naviy tubanlik yuzaga kelmoqda. Hozirgi yoshlarimiz orasida asriy milliy ma'naviyatimizga zid bo`lgan bag`ritoshlik, qotillik, giyohvandlik, xudbinlik, maishiy buzuqlik, tansotqinlik kabi ma'naviy qiyofalar va noqisliklar yuzaga kelib ildiz ota boshladi.

Hayotdagi ko`ngilsiz, inson dilini og`ritadigan va ma'naviy axloqiylilikka batamom bunday zid holatlar milat tarixida ilgari ham sodir bo`lgan edi. Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar allomalarimiz X1X asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo`lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og`ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. A.Avloniyning ta'kidlashicha: “Tarbiya –bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”. Bu fikrlarning ahamiyati hozirgacha e'tibordan chetda qolgani yo`q. O`zbek millati faqat milliy ma'naviy kamolot orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy buzulishning oldini olish muqarrar. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma'naviy poklanish, o`nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi va bu jarayon hozirgi kunda ham davom etayapti, milliy tarbiyaga alohida e'tibor bilan qaralayapti.

Milliy tarbiya – millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an'analarni o`zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish jarayoni bo`lganligi sababli, davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Uning asosiy yo`nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, meros, urf-odat va qadriyatlarni fan texnika, texnologiyalarni o`zlashtirishga intilishni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib etish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabi eng dolzarb masalalarga bugungi kunda alohida e'tibor berilayapti. Buni boshqa tadqiqotchilar ham o`z ishlarida ta'kidlaganlar.

Shunday ekan, milliy ma'naviyat ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o`tmish, bugun va kelajakdagi shaslar ma'naviyatining majmuidan iborat. Milliy ma'naviyatimiz millatimizning ma'naviy takomil jarayonida tashkil topgan va bugungi kunda ham mavjudligini saqlab turgan ko`p o`lchamli voqelik bo`lib, ajdodlarimiz yaratgan merosida o`z aksini topgandir, - degan xulosaga kelamiz.

## II BOB. MUSTAQILLIK VA SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MANBALARI

### 2.1. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishning milliy pedagogika tarixidagi talqini va tahlili

O`zbekistonda davom etayotgan mustaqillikni mustahkamlash jarayoni ta'lim va tarbiyani ham qayta isloh qilishni, xalqimizning qadimgi ma'naviy va ma'rifiy ildizlariga payvand qilishni; yosh avlodlarda millat vatanparvarlariga xos insoniy fazilatlarning tarixiy o`zaklarini aniqlashni; o`zbek xalqi tarixi, tili, adabiyoti, folklori, san'ati, an'analari va urf-odatlarini milliy tarbiyaviy tadqiq qilishni talab etmoqda. Ana shu nuqtai nazardan tadqiqotimiz mavzusi milliy tarbiyashunoslik tarixi qirralarini, xalq pedagogikasi sahifalarini ham o`rganishni talab qiladi. Chunki tarix millat oldiga qachon, qanday tarbiyaviy talablar qo`yganligini; davr o`zgarishi bilan milliy tarbiya - fe'l-atvorimizda qay sifatlar, qaysi tomonlarga o`zgarganligi, qaysi sifatlar o`zgarmay, avloddan-avlodga meros bo`lib etib kelganligini aniqlash, qisqacha qilib aytganda, milliy ma'naviy-axloqiylilik mezonlari majmuini yaratish va ularning o`zbek folklorida, ayniqsa, xalq dostonlarida qay darajada o`rin egallaganligini aniqlash va alohida tadqiqot sifatida o`rganish respublikamizda milliy ma'naviyatni, ma'naviy-axloqiy tarbiyani o`rganish va istiqbolini belgilash nuqtai-nazaridan g`oyat qimmatlidir.

O`tmishda ajdodlarimiz qanday fazilatlarga ega bo`lgan farzandni orzu qilishganliklarini va amalda tarbiyalab etishtirganliklarini anglash va ishonch hosil qilish uchun eng avvalo, ijodkor xalqimizning folklori namunalariga murojaat qilish kerak. Ularda vatanga muhabbat, e'tiqodlilik, millat birligi, erkparvarlik, sadoqatli do`st bo`la olish, o`z burchini, o`z so`zini oqlash, mardlik, jasoratga qodirlik eng zarur fazilatlar sifatida tarannum qilingan. Eng qadimgi tarixiy afsonalarning guvohlik berishicha, o`tmishda qadimgi ajdodlarimiz o`z burchini doimo ado etishga, dushman ustidan g`alaba qilish yo`lida qahramonlarcha o`z jonlaridan kechishga, har qanday mashaqqatlarga bardosh berishga, hatto sevgi, muhabbatidan voz kechishga, o`z qabiladoshlarining or-nomusi uchun to oxirgi qoni qolguncha mardona kurashishga shay» tura oladigan farzandlarni tarbiyalaganlar. Birgina misol: ajdodlarimizda milliy vatanparvarlik fazilatining qanday namoyon bo`lganligini Sak qabilasiga mansub cho`pon Shiroqning eramizdan avvalgi 519 yilda ko`rsatgan mashhur jasoratidan ham bilish mumkin. O`rnak, namuna va ibrat bo`la oladigan bunday tarixiy misollarni juda ko`plab keltirish mumkin.

Ajdodlarimiz ma'naviy-axloqiy tarbiyada azaldan farzand tarbiyasining negizi sifatida axloqiy uchlik: o`y, niyat, so`z - ish birligini yaratishgan. «Men yaxshi niyat, yaxshi so`z va yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga shon-shavkat baxsh etaman», - deb yozilgan «Yasna»da. “Yaxshi fikr” deganda, yaqin kishisiga mehribon bo`lish, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda ko`maklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi,

kishilar baxt-saodati uchun faol kurishishga shaylik, hamma bilan ahil va totuvlikda, o`z maslakdosh birodarlari bilan do`stlik va ham- jihatlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushuniladi. Inson o`z fikri-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yaxshi niyatli kishi darg`azab bo`lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi, chunki bunday holatida u yaxshi niyatini yo`qotadi, burch va adolat haqida unutadi va nojo`ya harakatlar qiladi», - deb hisoblangan.

Bunday ma'naviy-axloqiy fazilatlar kishining elga qo`shilishga, el bilan hamisha birga bo`lishga, elning tashvishi bilan doimo yashashga tayyor turishi, ya'ni xalqparvar kishini tarbiyalashga qaratilganligi o`z-o`zidan ko`rinib turibdi. Zamonlar o`tib; odamlar orasidagi munosabatlarning boyishi, savdo-sotiqning yuzaga kelishi bilan qabilaviy tarbiyaga qo`yiladigan talablar ham o`zgarib, zamonaviylasha bordi. Ajodlarimiz o`zlaridagi hislatlarning nafaqat xudo tomonidan ato qilingan, balki shakllantirilishini tobora chuqurroq ulg`aytirib bordilar. Jumladan, yaxshi so`zlar - ahdga vafodorlik, berilgan va'dani oqlash, hamma oldi-berdilarda halol bo`lish, o`zgalarning haqini emaslik, buzuqlikdan o`zini to`xtata bilish kabi qator yangi ma'naviy-axloqiylilik sifatlari bilan boyib bordi.

Kadimiy tarixdan ham ma'lumki, har bir barkamol va etuk shaxsda insonning barcha ijobiy fazilatlari va ma'naviy-axloqiylilikning mezonlari mujassam bo`lgan. Masalan, insoniy qadrlilik, bilimlilik, kasb-hunar, adolat, odamgarchilik, xushxulqlilik, ezgulik, yaxshilik, kamtarinlik, jasoratlilik, shirinsuxanlik, poklik, vafodorlik, do`stlik, mehmondo`stlik va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Eng qadimgi ma'rifiy axloqiy manbalarda insonda qadrlanadigan xislatlardan jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalik o`z ifodasini topgan.bo`lgan. Aslida bunday hislatlar o`z-o`zidan shakllanmagan, albatta. Tabiat va jamiyatdagi o`zgarishlar, ibtidoiy urug`chilik, qabilachilik turmush tarzi shuni taqozo etgan. Ikki katta kuch- yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi qarama-qarshilik munosabatlari natijasida insonda qadrlanadigan ma'naviy-axloqiylilik fazilatlari va xislatlarning shakllanishiga turtki bo`lgan.

Adabiy-badiiy va tarixiy asarlardagi ma'lumotlarning tasdiqlashicha, «Avesto»da insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalalariga alohida o`rinlar ajratilgan. Zardushtiylar aqidasiga ko`ra, inson paydo bo`lgandan beri odamzod fikrida ikkita gavhar paydo bo`lgan: birinchisi – fikr, so`z va amal (ish harakat)dagi yaxshilik bo`lsa, ikkinchisi mana shu fikrning tamomila aksi, ya'ni fikr, so`z va amaldagi yomonlikdir. Tarixiy hayotda aqlli, dono kishi o`ziga ana shu gavhardan yaxshilikni, nodon kishi esa yomonlikni tanlagan. Agar bordiyu ana shu ikki gavhar bir-birga payvast bo`lganda borliq va yo`qlik, harakat va sukunat paydo bo`lgan. Natijada yaxshilik tarafdorlari kundalik hayotda ezgulikni, uning tamomila aksi bo`lgan guruhlar esa yomonlikni qo`llashga harakat qilganlar. Lekin hayotda yaxshilik hamma vaqt va hamma

davrlarda yomonlik ustidan g`alaba qilib kelgan. Shuning uchun ham barcha odamlar azaldan hayotda «ezgu fikr», “ezgu so`z” hamda “ezgu amalga” intilib, yomon fikr, “yomon amal” va “yomon so`zdan” yuz o`girib yashashga intilganlar. “Avesto”da ana shu shu mezonlarining tarkibi, mazmun-mohiyati, tuzilishi, shuningdek, mukammal nazariy va amaliy tasnifi berilgan. Professor H.Homidiyning ta'kidlashicha, bunday mezonlar quyidagilardan iborat bo`lgan:

**Ezgu fikr:** tangrining yagonaligiga inonmoq, iymonda sobitlik, tavakkul, qanoat, kechirimli bo`lish, oshnochilik, shijoatlilik, rahmli va muruvvatli bo`lmoq, insof xushxulqlik, nafsni chegarash, kasb va ilmni sevmoq, mas'uliyatlilik va haqiqatparast bo`lmoqdan iborat;

**Ezgu so`z:** yagonaga tangriga hamdu sano aytmoq, to`g`ri so`zlilik, ahdida sobitlik, haqgo`ylik, salom va ta'zimda bo`lmoq, rost guvohlik bermoq, shirinkalomlikdan iborat.

**Ezgu amal:** tangri va payg`ambar buyurgan farz va sunnatlarni so`zsiz itoat etmoq hamda ularni bajarmoq, yaxshi ishlash, omonatga xiyonat qilmaslik ojizlarni qo`llash, serg`ayrat bo`lmoq, ota-ona va utod hukmiga farmonbardor bo`lmoq, xalq uchun, Vatan uchun xizmat qilmoq, mehmondo`stlik, parhezkorlik, yomon ishlardan yuz o`gimoq, mehribonik, insonsevarlik, jamiyat qonunlariga itoat etmoq, o`tganlarni esda tutish, haqiqattalab bo`lmoq, bemorlar holidan xabar olib turmoq, muhtojlarga yordam berish, o`z ishi va kasbiga mehr qo`yish, adolatli bo`lmoqdan iboratdir.

**Yomon fikr:** xurofatparastlik, tangrini tanimaslik kufr, g`urur, badxohlik, dushmanlik, haqiqatga ishonmaslik, hadiksirash, jangarilik, suq ko`zlik, toshbag`irlik, insofsizlik, hasad, g`arazgo`ylik, nafs bandasi bo`lmoq, xasislik, vafosizlik, badxuqlik, ishi va kasbiga mas'uliyatsizlik, nodonlik, nayrangbozlik, g`aflatga berilmoqdan iborat.

**Yomon so`z:** yolg`onchilik, tuhmatchilik, yolg`on guvohlik bermoq, kufr, nohaklik, qasamxo`rlik, achiqzabonlik, o`ylamay gapirmoq, nodurust hukmga kelmoqdan iborat.

**Yomon amal:** xudo va payg`ambarga itoat etmaslik, tanballik, o`g`rilik, qotillik, tamagirlik, hunarsizlik, bilimsizlik, omonatga xiyonat, haromxo`rlik, intiqomchilik, makkorlik, zolim va badhohlarni qo`llash va boshqalar.

Zardushtiylik ta'limotining ahloqiy yo`riqlariga ko`ra inson tomonidan o`z burchini his etishning eng birinchi belgisi ma'naviy poklik sanalgan. Ozodalikka rioya qilish: badanning toza bo`lishiga, suv havzalari – kanal va ko`llarning tozaligiga alohida e'tibor berish talab qilingan.

Ko`ramizki, «Avesto»da insonning barkamol bo`lib etilishida, ma'naviy-axloqiylilik mezonlarini to`la-to`kis egalashida uning so`zi, fikri hamda ishi bir bo`lishiga alohida e'tibor berilgan. Ushbu ma'naviy-ahloqiy uchlik g`oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo`lib qoldi. Shu sababli, bu asar nafaqat Sharq, balki g`arb xalqlarining ham muqaddas ma'naviy merosi sifatida qadrlanadi.Chunki, unda insonning inson sifatida

ma'naviy-axloqiylilik va moddiy kamol topishi uchun zarur bo`lgan muayyan talablar o`z ifodasini topgan .

Ajdodlarimizning ko`hna qabilaviy axloqiy-tarbiyaviy tizimi hozirgi mustaqil davrlarda ham biz to`qnashgan ma'naviy-axloqiylilik, madaniy, jismoniy, ekologik muammolarning echimini topishda va bartaraf qilish nuqtai-nazaridan ham bebahodir. Zero, ajdodlarimiz ma'naviy-axloqiylilik mezonlari kishining sog`-salomat, kuchli bo`lishi kerakligini uqtirish bilan birga uning ma'naviyatiga asosiy e'tiborni qaratgan. Jumladan, ayolga hurmat, uni e'zozlash, ona sifatida qadrlash g`oyalari markaziy o`rinlardan birini egallagan. Demak, bu g`oya yosh avlodga kundalik turmushda, oilada, yaxshi bolaning «namunaviy siymosi» orqali ijtimoiy tarbiyada izchil singdirib borilgan.

M.Hamdamovaning qayd etishicha, ma'raka-marosimlarning milliy tarbiyaviy imkoniyatlari ularda qatnashuvchilarning turli yoshdagi ijtimoiy, kasbiy guruhlardan tashkil topishi; muloqotlardagi ixtiyoriylik (bir-biriga bevosita bog`liq emaslik); erkinlik; yoshi ulug`, muhtaram kishilarga nisbatan hurmatning yaqqol namoyon bo`lib turishi; muloqot mavzularining rang-barangligi; marosimlarning shaxs xulq-atvorining ommaviy nazoratchisi sifatidagi xususiyatlarida namoyon bo`ladi. Bu xususiyatlar yoshlarning yoshi ulug` kishilar bilan birligini - milliy g`ururini mustahkamlaydi, o`z turar joyi, mahallasi, qishlog`idagi kishilar to`g`risida tasavvurlarini kengaytiradi, tevarak-atrofdagi muhitga diqqat bilan qarash malakalarini tarbiyalaydi, avlodlar orasida an'analarning uzviyligini tashkil etuvchi bug`in bo`lib xizmat qiladi.

Motam marosimlarida qatnashayotgan barcha kishilarga ota-ona qadriga vaqtni o`tkazmasdan, o`z vaqtida etish kerakligiga, ularni ranjitmaslikka, qariganda tayanch bo`lishga, o`zining va birovlar umrining qadriga etishga undovchi vositaligini, o`rnakligini qayta tan olmoq kerak. qolaversa o`smirlar marosimlarda qatnashib, ta'ziyaga borishning milliy odobi: kam gapirish; ortiqcha faryod qilmaslik; bema'ni gaplar gapirmaslik; motam egasiga sabru qanoat tilash; ko`lidan kelguncha yordam berish; ibrat olishni kuzatadilar, o`rganadilar.

Milliy ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini «sog`lom turmush tarzi darsi» tushunchasiga qiyoslash mumkin. Ana shu darsdan «a'lo» baho olish uchun har bir inson bobolar hikmatlarini, xalq maqollarining mazmunini chuqur anglashi kerak bo`ladi. Bobolar hikmatini shoir E.Voxidov o`zining «Hikmatnoma» asarining so`z boshisida, «. . .insofli odam bexosdan toyib ketsa, biror tayoq suqib, ey yo`lovchi, ehtiyot bo`l, bu erda chuqur bor, ko`zingga qara» deb qilgan ishora - tayoqchaga; boshqalarni yillab ochilgan buloq, ekilgan daraxtga; o`zlaridan keyin keluvchilar ham iymonli, ilm-ma'rifatli bo`lsinlar deb ellar, yurtlar o`rtasida yaxshi bordi-keldilar bo`lsin, - deb solingan masjid, madrasa, yo`l, ko`prik, karvonsaroylarga o`xshatadi. O`zbekman

degan har bir insonning o`z yurti kechmishini va hozirini mukammal bilmog`i, o`z ona tilisining zargari - fikriga maqollar bilan ko`rk berib gapirishini istaydi»1,- deydi o`zining asarida.

Darhaqiqat, o`zbek xalqining asrlar davomida «yashash darsi»dan to`plagan boy tajribasi ko`plab maqollarda o`z aksini topgan. «Har gulning o`z isi bor, har elning o`z tusi bor» deganlaridek, maqollarimiz xalqimizning turmushi, urf-odatlari, an'analari va eng muhimi - o`zbek bolasining qanday kishi bo`lishi va qanday kishi bo`lmasligi kerakligi haqida ibrat va o`rnaklar jamlangan ma'naviy- madaniy merosdir.

Shuningdek go`zallikni tushunish, san'at, adabiyot, tasviriy san'at turlari, san'at turlari, tili, bayramlari, pazandaligi, maqollari, qomat tutishi, kiyinishi, ibosi, imo-ishoralari, tabassumi, uyqusi, xayoli, ta'zimi, marosimlari, xalq ijodiyoti, ta'bi, didi va boshqalarda an'anaviy «O`zbekchilik» aks etib turadi. Buning bosh sababi - tarbiyaning ana shu xususiyatlarga tayanishida - milliy, ma'naviy-axloqiylik mezonlariga egaligidadir.

Hozirgi mustaqillik sharoitida eng avvalo, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun inson tabiati va salohiyatiga oqilona yondosha oladigan, o`zida ma'naviy-axloqiylik fazilatlari va sifatlarini mujassamlashtirgan o`quvchi shaxsini shakllantirishimiz lozim. Bu eng dolzarb va mas'uliyatli vazifa sanaladiki, ularni hal qilishimizda chinakam milliy pedagogikani shakllantirish va takomillashtirish uchun avvalo ma'naviyatimiz ildizlariga murojaat qilishimiz, ajdodlar o`gitlarini o`zlashtirishimiz, shu bilan birga, umumbashariy yutuqlarga tayanishimiz, to`plangan ijobiy tajribalardan oqilona foydalanishimiz va natijada hozirgi unib-o`sib kelayotgan farzandlarimizni kelajakdagi munosib voris sifatida tarbiyalashimiz lozim.

Agarda ijodkor xalqimizning shonli tarixi sahifalariga nazar tashlasak, ular hamisha va hamma vaqt ma'naviy-axloqiylik mezonlarini o`zida mujassamlashtirgan, davr va zamon talablariga to`liq javob bera oladigan farzandlar avlodini tarbiyalashga alohida e'tibor berganliklarini ko`ramiz. Vatanimiz tarixini dunyoga taratgan mo`'tabar ajdodlarimiz, buyuk mutaffakir bobolarimiz o`z asarlarida inson tarbiyasining mazmun-mohiyati, sir-asrorlari va ularni amalga oshirish yo`llari to`g`risida qator tavsiyalar ishlab chiqqanlar, o`zlarining hayotiy kuzatishlari hosilasida paydo bo`lgan fikr-mulohazalarni bayon qilib borganliklariga guvoh bo`lamiz.

Fikrimizni qisqacha dalillashga harakat qilamiz. Milliy pedagogikamiz tarixida Al-Farobiy birinchi bo`lib insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlari va sifatlari, bilimlarning turlari va ularni egallab olish yo`llari hamda uslublari haqidagi kontseptsiyani yaratdi. Unda axloq tushunchasini tafakkur bilan uzviy aloqadorlikda qaradi, ya'ni ma'naviy-axloqiy tarbiyani aqliy tarbiya bilan birga amalga oshirish to`g`risidagi tavsiyalarni bayon qildi. Farobiyning ta'kidlashicha, komil hukmdor sog`lom, xushmuomala, zehnli, idrokli, o`z fikrini to`g`ri bayon

qila oladigan, so`zga chechan, bilim egallashga e'tiborli, axloqan sof, adolatli, o`z qadr-qimmatini biladigan, vijdonli, boylikka xirs qo`ymagan, jur'atli, botir, jasurlik ko`rsata oladigan sifatlarga ega bo`lishi lozim deb hisoblaydi. Albatta, Al-Forobiyning "Komil hukmdor" shaxsiga nisbatan bayon qilgan sifatlar har bir insonga xos bo`lishi kerak.

Bundan tashqari, Abu Nasr Al-Forobiyning ijodiy merosida uning tomonidan birinchi bo`lib yaratilgan fanlar tasnifi alohida o`ringa ega. Allomaning qayd etishicha, inson o`zida komillik sifatlarini tarkib toptirish uchun birinchi navbatda ilmiy bilimlarni egallamog`i lozim, shuningdek u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi.

O`zining "Ixso al-ulum", "Fozil odamlar shahri", «Baxtga erishish haqida" kabi asarlarida Al-Farobiy barkamol shaxsni tarbiyalash ishlari mazmuni, maqsadi, vazifalari, yo`llari hamda vositalari to`g`risida so`z yuritadi. Al-Farobiy "o`qitish" va "tarbiyalash" tushunchalariga birinchi bo`lib ta'rif bergan olim sanaladi.

Farobiyning fikricha, "o`zida o`n ikki tug`ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo`la oladi:

Bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo`lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo`lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin.

Barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to`g`ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so`zlovchining maqsadi va aytilgan fikrning chinligini tezda payqay oladigan bo`lsin.

Xotirasi juda baquvvat bo`lsin, ko`rgan, eshitgan, sezgan narsalarning birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo`lsin.

Zehni shu darajada tez va o`tkir bo`lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishligini tezda bilib olsin.

So`zlari aniq bo`lsinki, fikrni va aytmoqchi bo`lgan mulohazalarni ravon va ravshan bayon eta olsin.

Bilish va o`qishga muhabbati bo`lsin, o`rganmoqchi bo`lgan bilimini charchashdan sezmasdan osonlik bilan o`zlashtira olsin.

Ovqatlnishda, ichimlik iste'mol etishda ochko`z bo`lmasin, tabiati qimor o`yinlarini o`ynashdan uzoq bo`lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo`lsin.

Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo`lsin, yolg`on va yolg`onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo`lsin.

Ruhi g`ururli va o`z vijdonini qadrladigan bo`lsin, uning ruhi o`z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga intiladigan bo`lsin.

Dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin.

O`z tabiati bilan adolatni sevadigan adovat uchun kurashuvchilarga, adaolatsizlikka, jabr-zulm o`tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo`lsin, o`z odamlari va boshqalarga adolatli bo`lsin, go`zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda, odamlarni adolatga targ`ib etadigan, adolatsizlik natijalarini yo`qotadigan ularga yo`l qo`ymaydigan bo`lsin.

Adolatli bo`lsin, ammo qaysar bo`lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o`zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida qat'iy so`zli bo`lsin, o`zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko`rsatsin, qo`rqmas, jasur bo`lsin, qo`rqish va ojizlikni bilmasin.”.

Al-Beruniyning kasbiy bilimlarni egallash uslublari haqidagi pedagogik qarashlari milliy pedagogikamiz tarixi sahifalarida alohida o`ringa ega. Beruniyning qayd etishicha, «insonning barkamolligi uning amaliy kuzatishlari natijasida asosida shakllangan aqliy faoliyati negizida yuzaga keladi. Demak, inson shu asosda tashqi olamni, borliqni o`rganadi, bilimlarni egallaydi, haqiqatga yaqinlashadi, haqiqat esa borliq to`g`risidagi tasavvurlarning haqqoniyligini talab qiladi. Shu tahlitda inson shaxsi rivojlanib boradi.1

Buyuk bobokolonomiz Ibn Sinoning aqliy, ma'naviy hamda jismoniy komillikka erishish haqidagi fikr-mulohazalari ham milliy pedagogika tarixida alohida ahamiyatga ega. Abu Ali Ibn Sino ham aqliy tarbiyaga fanlar asoslarini egallash orqali erishilishini ta'kidlaydi. U bilim olish uslublarini egallashda mantiqiy fikrlashga, shaxsiy kuzatish natijalari va tajribaga asoslanish lozimligi to`g`risidagi fikrlarni ilgari suradi. Uning maktabda bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasidagi g`oyalari bugungi kunda o`zining yuksak ahamiyatini yo`qotmagan. Buni boshqa tadqiqotchilar ham alohida qayd etishgan.1

Ma'lumki, inson borliqning ajralmas bir bo`lagidir. Shuning uchun ta'lim jarayoni insonning tabiiy va ruhiy ehtiyojlarini muvofiqlashtiruvchi tabiat qonunlariga uyg`un bo`lishi kerak. Yosh bolada narsa va hodisalarni mavhum mushohada qilish orqali tushunish qobiliyati yaxshi shakllanmaganligi bois mavhum tushunchalar uning hissiy kechinmalariga shikast etkazishi mumkin. Bola avval his etib, keyin fikrlashi kerak. Zero, ulug` mutafakkir Abu Ali Ibn Sino ham ruhiy hissiy tarbiya birlamchi ekanligini e'tirof etgan va “Ruh tanga nisbatan sozlovchi vazifasini o`taydi”- degan xulosaga kelgan.

Abu Ali Ibn Sino musiqa to`g`risida yaratgan risolasida inson sezgilariga turli ohanglar vositasida ta'siri etib, tarbiyalash haqida so`z yuritadi. Ibn Sinoga qadar hech bir alloma barkamol shaxs tarbiyasida jismoniy ijodkorlik sifatlarining tutgan o`rni to`g`risida yaxlit ta'limotni yaratgan emas. “Tib qonunlari” asarida Ibn Sino gigienik tarbiyaning inson xulqiga, uning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga ta'sirini ilmiy-amaliy yo`l bilan asoslab bergan1.

Milliy pedagogika tarixida Al-Xorazmiyning ilmiy bilimlar, hayotiy muammolarni hal qilish to`g`risidagi, shuningdek, shaxs sifatlarini shakllantirish bilan bog`liq bir qator fikr-mulohazalari ham alohida qimmatga ega. Jumladan, Al-Xorazmiy shaxs sifatlarini shakllantirish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda fanning yuksak o`rnini qayd etadi. U shaxsni kuzatish, tajriba-sinovlar o`tkazish, ko`nikma va malakalarni tarkib toptirishga, aqliy sifatlarni rivojlantirishning boshqa vositalariga katta ahamiyat bergan. Bu to`g`ridagi fikrlarini u "Al jabr v-al muqobala" (Algebra), "Hisob al-hind" va boshqa asarlarida bayon qilgan.1

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur har vaqt: "Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug`laydi", degan hikmatli so`zni takrorlashni xush ko`rgan va hayotda o`zlari ham amal qilgan. Sohibqiron o`zining hayoti davomida insonning ijodiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan: ya'ni ijodiy faoliyat shaxsni ma'naviy jihatdan kamolotga etkazuvchi ruhiy hodisa, deb bilgan. Xususan, «Bilki g`olib bo`lmoqlik (Tangrining) madadi va bandasining tabiri bilandur» deya insonning muayyan faoliyatni tashkil etishdan oldin uni qo`llab-quvvatlovchi ruhiy omillarga tayanishi, aniq maqsad asosida ish ko`rilishi lozimligiga urg`u beradi. Amir Temurning quyidagi fikrlaridan anglash mumkinki, garchi natijasi aniq bo`lsada har bir ishni puxta reja va oqilona tadbir bilan amalga oshirish lozim, ya'ni, «Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo`lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu-tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir». Ushbu fikrlarning o`ziyoq bobomizning eng oddiy faoliyatga ham o`ta jiddiy yondoshganligidan dalolat beradi.

Shuni aytish kerakki, Amir Temir odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o`zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o`zi tomonidan yaratilgan o`zining tuzuklaridagi odob va axloqqa oid dasturlar, o`gitlar, pand-nasihatlariga murojaat qilamiz:

1. "Men sifatlarimizning eng avvali beg`arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag`aldan ustun quymadim".

2. "Men har doim Islomga qattiq rioya qildim va Olloh taoloning amri bilan ulug`langan shaxslarga hurmat bilan qaradim".

3. "Men kambag`allarga xayr-ehson qildim. Har mojoro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to`g`ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim ".

4. "Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf etkurdim. Bunda birovga nohaq ozor etkazmadim va mendan yordam so`rab kelganlarni ko`kragidan itarmadim. qur'ondagi Parvardigorning, Ollohning amriga bo`ysinish va xalqiga shafqat qilish darkor, degan oyatni o`zimga farz eb bilib, uqib oldim va umr bo`yi barcha yumushlarimda unga amal qildim".

5. “Islomga taaluqli ishlarni men har doim ko`ndalang va dunyoviy ishlardan ustun qilib keldim. Avval tangriga itoatni ado etib bo`lgandan so`ng kundalik ishlarga qo`l urdim”.

6. “Barcha so`zlarimda doim haqqiqatgo`ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlarimdagi haqiqatni yolg`ondan ajrata oldim”.

7. “Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim, hargiz va'daga xilof ish qilmadim, Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo`lishimni va kimsaga kimsaga jabr etkazmasligimni angladim”.

8. “Doimo o`zimni Ollohning eradagi mulki posboni deb bildim va Parvardigorning iznisiz uni sarf etmadim...”

9. “Men har doim tangrining amrini va uning payg`ambari Muhammad alayhisalomning hadislari to`la ado etishga intildim...”

10. “Men har doim insof bayrog`ini baland ko`tardim va imon tarqatishni o`z buyukligimning qudratli zamini deb bildim”.

11.“Men doim saidlarga ehtirom bilan qaradim, ullamo va shayxlarni e'zozladim...”.1

Ushbu o`git va nasihatlar, fikr-mulohazalardan shunday yakuniy xulosa kelib chiqadiki, sohibqiron bobomiz beg`arazlilik, insonparvarlilik, ochchiq ko`ngillilik, jiddiylilik, odillilik, islomga e'tiqodlilik, xayr ehsonlilik, rahmdillilik, haqiqatgo`ylilik, lafzida vafolilik, insoflilik, ehtiromlilik, zamondoshlariga hurmatlilik kabi ma'naviy-axloqiylilik mezonlarining qator etakchi fazilat va sifatlariga ega bo`lganlar.

Alisher Navoiy esa o`zining butun hayoti davomida va yozgan asarlarida shaxs kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo`lgan ruhiy, ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi, deb hisoblaydi. Yana u odamlar o`rtasidagi munosabatlarni umuman bitta jamiyat bo`lib yashash, bir fikrda bo`lish, odamiylik ideallariga tayanish kabi ma'nolarda tushunadi. Birgina “Hayratul-abror” dostonini olaylik. Navoiy bu dostonda insonning kasbiy faoliyatidan kelib chiqadigan munosabat tarbiyasiga xos faollikni milliy ruhda asoslab bergan. Undagi yuksak g`oyalar shaxsni mehnatga, o`z kasb-koriga, oilasiga, ota-onasiga, farzandiga, ona-yurtga, tili va diniga bo`lgan axloqiy munosabatini, komillik sari intilishini o`zida aks ettiradi. Asarda xalq va mamlakat uchun fidoiylik qilgan insonlarni o`z ideali deb biladi. Shu bilan birga odamlardagi yalqovlik, beparvolik, mayparastlik, maishatbozlik va jaholat kabi illatlarga bo`lgan salbiy munosabati ham asarda ochiq-oydin o`z ifodasini topadi 1.

Ushbu mulohazalarni asoslash va dalillash uchun “Hayratul-abror” (Yaxshi kishilarinng hayrati) asarining ayrim maqolatlaridagi ta'lim-tarbiya bilan bog`liq o`rinlarga e'tiborimizni jalb qilamiz. Bu asarning beshinchi maqolati xayr-ehsonni ta'riflashga bag`ishlangan. Shoirning fikri va hayotiy xulosasiga ko`ra, inson zotining ikki qo`li va panjalari Sharqda ham, g`arbda ham huddi quyoshga o`xshaydi, ularning vazifasi xalqqa oltin-kumush sochish uchun xizmat qilish.

Lekin, pul bilan qo`lning o`rtasida katta adovat bor: shuning uchun ham pulning umri qisqa, qo`l va uning panjalari "saxovat orqasida barhayotdir". Senga tangri ato qilgan bu ikki narsa, ya'ni qo`l va ularning panjalari karam va saxiylikka bo`linadi, deb ta'kidlaydi shoir, baxillik va saxiylikning o`ziga xos jihatlari, insoniy fazilatlardagi o`rni haqida alohida xulosa beradi:

«Ehson va saxovat ko`rsatish vaqtida baxillik qilma, xudoga shukr bildirish chog`ida ham tanti bo`l. Baxillik insonda bor sifatlarning eng pasti, lekin saxovat javhari esa eng nafisi. Saxiylik senga odat bo`lib, boshing shu saxiylik duri bilan porlab turadi. Shuning uchun bu mo`l-ko`l durni xor qilma, uni baxillik bilan almashtirma».

Hazrat Navoiyning ta'kidlashicha, ehson va karamning o`z qonun-qoidalari, amalga oshirish me'yorlari bor. Inson o`z hayoti davomida boyligini ko`z-ko`z qilib, o`ta saxiy bo`laman deb, isrofchilikka ham yo`l qo`ymasligi lozim: "Ey odam, tangri senga yuksak amal nasib ettirib, karam qilishing uchun kerakli boylikka ega qilgan. Shuni bilki, kim saxiylik qilishga haqli ekan, kim pul ulashishga munosib ekan, nom chiqarish uchun gavharni hovuchlab sochish, maqtanish uchun etaklab pul berish aqlli ish, deb hisoblanishdan juda uzoq. Bunday saxovatdan baxillik yaxshiroqdir ".

"Hayratul-abror"ning oltinchi maqolati milliy tarbiyashunosligimizning o`zak masalalariga, eng dolzarb muammolariga bag`ishlangan. Aniqroq aytganda, "Adablilik odati" va uning sir-asrorlari, inson ma'naviy kamolatida tutgan o`rnini belgilashga va sharhlashga qaratilgan.

Hazrat Navoiyning kuzatishicha, har bir inson el va xalq uchun riyozat chekib, yaxshi niyat bilan astoydil xizmat qilsa, martabasi va obro`si baland bo`ladi. Buning uchun esa, eng avvalo, tavozu' va adab ilmini, uning fazilatlarini puxta egallamog`i zarur. Huddi endigina chiqqan yangi oy tavozu' bilan qad rostlab, kun sayin kamol topgani kabi, yoy tavozu' sifatiga ega bo`lgani uchun "qur'on" ustidan joy olgani kabi Osmon ham tavozu'ga rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga bo`ysinga kabi tavozu' va odatni puxta o`zlashtirsagina el nazariga tushadi, - degan xulosani beradi. Shundan so`ng insondagi adabsizlikning bir necha belgilari haqida so`z yuritadi. Ulardan biri kulgi, ya'ni, qahqaha hisoblanadi.

"Adabsizlikning biri kulgidir, - deb ta'kidlaydi mutafakkir shoir, - kulgi adabsizlikning belgisidir. Kaklik qahqaha solib kulgani uchun bu kulgi tufayli uning boshiga balo keladi (ya'ni, ovchilar ovozidan bilib, ovlab oladi). g`uncha kulib, ochilib ketganidan keyin o`z-o`zidan sochilib ham ketadi. Chaqmoqning o`z kulgisi tog`ning ichiga qulatadi, hatto erga pastlatib, tuproqqa kiritib yuboradi. Tong ham shunaqa odatni yaxshi ko`radi. Shuning uchun quyosh o`ti uning durlarini isiriqqa aylantiradi.

Kulgi o`z me'yoridan oshib ketdimi, bundan yig`lagan ancha yaxshiroqdir. Sham har kecha yig`lagani uchun toboro ravshan yonadi; g`unchani esa kulgani uchun shamol uchirib

ketadi. Bulut yig`lab, ko`z yoshi to`kishi bilan dur sochuvchi bo`ldi; chaqmoq esa kula-kula pastlashdi, erga kirdi. Mast ham yig`lab-yig`lab o`zini bilmay qoldi, lekin kechirim so`ra yig`lagani gunohdan pok etdi... ”

Navoiyning fikricha, tavozu'li kishi ma'naviy jihatdan axloqli va odobli hisoblanadi. Odoblilik esa tavozu'ga qaraganda eng yuqori bosqich sanaladi. Lekin, tavozu'ni har bir inson o`z ahvoli va sharoitiga qarab o`z meyo'rida ko`rsatishi shart. Buni ham sinchkov shoir alohida uqtiradi: “...ko`rsatgan tavozu'ing uning ahvolining ko`rinishiga muvofiq bo`lsin. qulga bek ortiqcha tavozu' ko`rsatsa, o`ziga azob-uqubat iplarini orttirgan bo`ladi. Gadoning oldida sajda qilish marhamat emas; unga bir diram bersang, bu unga nisbatan marhamat ko`rsatishdir. O`rindan turib, bolaga joy berish ham adabdan emas; keksalar bu ishni adab hisoblashmaydi. Bunday ahvolda u mutakabbir hisoblanib, sen engiltaklik qilgan bo`lasan...”1

Alisher Navoiy milliy pedagogikamiz tarixida birinchilardan bo`lib yosh avlodga tarbiya berishning bir necha turlari va shartlarini ko`rsatib berdi. Biz quyida “Hayratul-abror”ning faqatgina oltinchi maqolatidagi ayrim ko`rsatma va tavsiyalarini qayd etish bilan va asar matni orqali ularni izohlash bilan chegaralanamiz:

Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish, bilki, uning kichkinaligidan parvarish qilishdir. qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi.

Tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo`yish..., uni oti bilan chaqirganlarida u uyaladigan bo`lmasligi kerak.

Tarbiyaning yana biri unga ilmu adab o`rgatish uchun muallim chaqirishdir. It etuk ta'lim olgani sababli u tishlab kelgan ov halol hisoblanadi. Yuvgan bilan toza bo`lmaydiigan it olim bo`lgan ekan, o`g`ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo`ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarar. Voqe' bo`ladigan balolardan uni o`z mehring bilan asrashing bolang oldida sendagi tavozu'ni bildiradi...

Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish; buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo`lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo`lishini istasang, bu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so`zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen adab bilan bajar...

Bundan so`ng rahm in'omini o`zingga qarz deb bil;o`sha toifadagi odamlarga rahm qilishni farz hisobla, yurgan odamlar ichidagi kattadan- kichigigacha, yoki oraliqdagi o`rta martabalikka ham, kimki katta bo`lsa, uning xizmatini qilish kerak. Kimki kichik bo`lsa, unga shafqat ko`rsatish kerak.

Kimni o`rta yosh deb fikr qilgan bo`lsang, uning hurmatini ham meyo'rida asra. Xizmatini qilib, uni ortiqcha ulug`lab ham yuborma, yomon munosabatda bo`lib, tahqir ham qilma. Uni hurmat qilib, "hamma ishning o`rtachasi yaxshi" degan ma'noli qoidaga amal qilishing zarur. Uning izzati meyo'ridan kam bo`lsa ham, haddidan ortib ketsa ham yaxshi emas.

Shohga xizmat qilishni shu qonunlardan kelib chiqib tushun...; Senga shoh xizmatini qilish nasib qilsa, to`rtta ishni o`zingga saylab ol: oldindan niyatingni uning niyati rostla, boshqa niyatlarni ko`nglingdan chiqar. Yana biri, xizmat qilishning vaqtini bil, xizmat qil, lekin qilmagandek tur. Yana biri, yaxshi-yomon so`z og`zingdan chiqmasin: odamlarning yaxshi-yomoniga ham qarama (gapini e'tiborga olma). Yana biri, bu xizmatdan qiynalsang ham, azob cheksang ham, adab shartiga ko`ra, hamma yaxshi yomoniga chida...

Lekin bular hammasi, ... gapning bir qismidir. To`lasi shuki, agar nogihon sen boylik to`plash odatidan or qilib, faqirlik uyiga yo`l olsang, ayniqsa shunday ahvolga tushganda tavozu' ko`rsatishing shart. Xudoning naq ro`parasida unga umid bog`lab tura bilish kerak. Agar senga osmonning kuch-qudrati nasib bo`lsa ham, er yuzida sen kamtarlikni tanla. g`am-g`ussa yuki seni tog`dek ezib tursa ham, uni ostida sen tuproqdek tura ber. Boshingga toshlar yomg`irdek yog`ilsa ham, binafsha kabi boshingni yuqori tutib tura ber. Tavozu' vaqtida vafo qilish, adab qoidasiga ko`ra fikrli bo`lish kerak. Ana shu vositalar bilan ma'qul bo`lib, asl maqsad tomon yo`lga tushgan bo`lasan...

Keltirilgan ko`rsatmalar va tavsiyalarning o`ziyoq mutaffakir bobokolonimizning nihoyatda katta hayotiy tajribaga ega bo`lganligini, uning doimo xalq bilan birga hamfikr, hamdard va elkadosh bo`lib yashaganligini, o`z zamondoshlari va kelajak avlodlarning tarbiyasiga alohida e'tibor berganligini ko`rsatadi. Bu bir tomondan. Ikkinchi tomondan esa biz qisqacha tanishib chiqqan "Hayratul-abror" asarining ayrim boblari va qismlari (maqolatlari)da berilgan o`git va nasihatlar xalqimizning pedagogikasidagi umuminsoniy va milliy g`oyalariga to`liq mos keladi. Shu ma'noda, bu asar adabiy-badiiy va pedagogik-didaktik manba sifatida milliy tarbiyashunoslik tarixi sahifalarida muhim o`rinni egallaydi, u ma'naviy-axloqiylik mezonlarini o`rganishda va hozirgi yoshlar ongiga singdirishda alohida qadrga ega.

Alisher Navoiy o`zining g`oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to`plagan boy hayotiy tajribasi va xulosalarini yana bir didaktik asari - "Mahbul ul-qulub"da ham bergan. Uning 10-bobdan iborat ikkinchi qismi to`lig`icha milliy odob-axloq masalalariga bag`ishlangan, insondagi yaxshi fazilat va yomon xislatlar pedagogik-psixologik jihatdan teran tahlil qilingan, ularning har biriga alohida-alohida ta'rif va tavsif ham bergan.

Jumladan, "Tavoze' va odob to`g`risida"gi 4-bobida odob tushunchasining mazmun-mohiyati va odobli insonning fazilatlari haqidagi fikr-mulohazalarini olaylik. Shoir alohida ta'kidlaydi: "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U

mansabdor kishilardan go`zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Odobli odam o`z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq, hech qanday ehson bermay kattadan-kichik, hammani shod qiladi; hech qanaqa hadya qilmay, kishilarning g`amini tarqatadi.

Odob – kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo`lgan hurmatsizlik eshigini berkitadi va odamni hazil-mazahdan, kamsitilishdan saqlaydi. Odob – odam tabiatiga insoniylik baxsh etadi va kishi mijoziga odamiylik manzilida orom beradi.

Odobdan kichiklarga shunchalik foyda etadigan bo`lsa, kattalarga ne chog`liq ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze' – mehr muhabbatning zeb-ziynitidir; odobsizlik – do`stlikka putur etkazadi. Odob va tavoze' do`stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug`lik bag`ishlaydi”1.

Yana shuni alohida qayd etish zarurki, Navoiy odob tushunchasini tavoze' tushunchasiga daxldor, - deb talqin qiladi. Dastlab odob saqlash, xokisor bo`lishlik ma'nosidagi tavoze' tushunchasining mazmuni, so`ngra tavoze' va odob egalarining fazilatlari haqida so`z yuritadi:

“Tavoze' – kishiga xalqning muhabbatini jalb qiladi, - deb ta'kidlaydi shoir, - odamlarni u bilan do`stlashtiradi. Tavoze' – do`stlik gulshanida toza gullar ochadi va gulshandan oshnalik va ulfatchilik bazmiga xilma-xil gullar sochadi. Tavoze' – takabbur muxolifga muloyimlik va kamtarlik yo`lini ko`rsatadi; gerdaygan umuman ko`nglida insoniylik zavqini quzg`atadi. qayta-qayta ko`rsatilgan tavoze' – hayosiz takabburni uyat chegarasiga tomon yo`llaydi va haddan tashqari insofsiz dushmanni yomonlikdan qilishdan qaytaradi.

Tavoze' va odob egalariga hamma ta'zim qiladi va hurmat bildiradi. Odob urug`ini ekkan odamning hosiil javohir bo`ladi. Odobli va go`zal xulqli odamlar ko`payaversa, xalqning do`stligi, ularning bir-biriga bo`lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tavoze' kabi yaxshi xulqqa ega bo`lsa o`zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo`ladi. Do`stlar orasida shu kabi suhbat va shu yo`sinda hamjihatlik bo`lsa qanday yaxshi! Bunday ahl, ittifoq, muhabbatli, odobli bo`lish – do`stlar uchun baxtiyorlikdir”1 – degan xulosani beradi.

Pedagogika fanida, xususan, tarbiya nazariyasida insonlarning odob-axloqi va xulqiga baho berishda har-xil yo`nalishdagi mulohazalar mavjud: masalan, shaxsning ijtimoiy faolligini ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlikning o`lchovidir, degan fikrlar birinchi yo`nalishning asosini tashkil etsa, ikkinchisi - shaxsning qo`yilgan barcha talablariga ijobiy munosabati, ya'ni shaxsning o`z xulqiga e'tibor berishi, o`z-o`zini nazorat qilib baholay olishi va nihoyat keyingisi – ma'naviy axloqiy odatlar va fazilatlar insonning odob-ahloqi va xulqiga baho berishda etakchilik qiladi, degan mulohazalardan iborat. Demak, kishilar xulqiga va odob-axloqiga baho berish ancha murakab pedagogik muammolar hisoblanadi, ayni vaqtda, juda mas'uliyatli va o`ta xolislikni, “etti o`lchab, bir kes” ishni talab qiladi.

Nazarimizda, Zahiriddin Muhammad Bobur ham milliy tarbiyashunoslik tariximizda ana shu yo`ldan borgan: o`zining "Boburnoma"sida 80 dan ortiq shaxsning nomini tilga oladi, 50 dan ortiq zamondoshining xulq-odobi, insoniy fazilatlari va sifatlari, ijtimoiy faolligi, hayotdagi muammo va aloqalari, ma'naviyati va barqaror ma'naviy-axloqiy sifatlari haqida maxsus to`xtaladi, ularga adolatli baholar beradi va o`zining shaxsiy munosabatlarini ham bildiradi.1

Biz alohida ta'kidlamoqchi bo`lgan asosiy fikr shuki, Bobur hayotda ham, ijodda ham ma'rifatparvar shaxs sifatida elning e'zozida bo`lganlar. Uning kishilar hulqiga bildirgan munosabati va xulq tahlili bilan bog`liq mulohazalari eng avvalo, xulq-axloq nazariyasi mazmunini chuqur egallagan ma'rifatparvar farzand ekanligini ko`rsatadi:bu o`rinda uning o`z otasi Umarshayx Mirzoning xulqi haqidagi fikr-mulohazasini ko`z oldimizga keltiraylik. U yozadi:

"Ravon savodi bor edi. "Xamsatayn" va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o`qub edi. Aksar "Shohnoma" o`qur edi. Ta'bi nazmi bor edi, vale she'rga parvo qilmas edi.

Bisyor saxovati bor edi. Xulqi dag`i saxovaticha bor edi, xush xulq, harrif, fosih va shirin zabon kishi edi, shujo' va mardona kishi edi"1.

Boburning o`z otasiga bo`lgan bunday qisqacha va samimiy munosabati esa katta bilim va hayotiy tajriba talab etuvchi mashaqqatli izlanishlarning hosilasi deb bilish mumkin.

Odamlarning xarakterini tahlil qilish filologik tadqiqotlarda ham, pedagogik-psixologik tadqiqotlarda ham alohida o`rin tutadi. Ayniqsa, xarakter muammosini psixologiya fani maxsus o`rganadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Boburning ma'rifatparvar-psixolog sifatidagi salohiyati shu qadar ulkanki, uning janglarda, odamlar bilan munosabatlarda, shoir va olim sifatida, ma'rifatparvar shoir va shoh sifatida qo`lga kiritgan ulkan g`alabalari ko`p jihatdan uning eng nozik ruhiy jarayonlarini ham to`la anglab, tahlil qila biladigan ruhshunosligi bilan izohlanadi.

«Qamar Amonning ta'kidlashicha, Bobur kishi ruhini naqadar chuqur bilgani uning tarixiy personajlar portretini tasvirlashida ham, xulq-atvorini baholashida ham namoyon bo`ladi. Masalan, u o`z zamondoshlari portretlarini chizar ekan, faqat tashqi ko`rinishi, gavdasi, kiyinishi va boshqalarni tasvirlash bilan chegaralanmaydi. Asardagi bir qator shaxslar portretiga bag`ishlangan sahifalarida "shakl va shamoyili", "axloq va atvori", "avlodi" degan kichik bo`limlar mavjud. Muallif odamlarning shakl va shamoyilini ruhiyat bilan uyg`unlikda tahlil qiladi. Axloq va atvor haqidagi kichik bo`limlar asosan ruhiy tahlilga bag`ishlangan.1

Biz ham ushbu mulohazalarga to`liq qo`shilamiz va bu o`rinda ikkita misol keltirish bilan cheklanamiz. Masalan, "Boburnoma"dagi Sulton Ahmad Mirzoning tavsifiga bag`ishlangan sahifalarni olaylik. Unda muallifning Sulton Ahmad Mirzoning ruhiy dunyosini ochib berganligini va uning ijobiy xislatlari rahbarlik faoliyatiga qay darajada ta'sir etganligini,

aholining osayishta hayot kechirishga qaratilgan bayonini ko`ramiz1. Yoki boshqacha bir jihatni ko`z oldimizga keltiraylik: asarda tarixiy shaxslar xislatlarining pedagogik-psixologik jihatlari tahlil qilinar ekan, rahbar, boshliqning qanday sifatlarga yoki qusurlarga ega ekanligiga qarab, qo`li ostidagilarda ham shu sifatlar yoki qusurlar qaror topganligiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, Hisravshohning noinsoniy fazilatlari va qusurlari bilan bog`liq bayondagi Boburning fikr-mulohazalari, sinchkovlik tarzdagi hayotiy kuzatishlari va xulosalari fikrimizga yorqin dalil bo`la oladi.

Bobur zamondoshlarini, ayniqsa, yoshlarni eng yaxshi odatlarni o`rganishga, davom ettirishga, hayotning barcha talablariga javob bera olmaydigan tartib qoidalar o`rniga yangilarini joriy etishga, hatto bir o`rinda ota o`z hayotida juda yomon ish qilgan bo`lsa ham, yaxshilik ish bilan xizmat qilishga da'vat etadi: "Har kimdin yaxshi ish qolg`on bo`lsa, aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yomon ish qilgan bo`lsa, yaxshi ish bilan badal qilmoq kerak", - degan tavsiyani beradi. Yoki yana bir o`rinda yomon xulqli, el nazaridan qolgan bir xotin haqida beshafqatlik bilan shunday fikr bildiradi: "Tangri hech bir musulmonga bu baloni solmag`ay. Yomon xuyluk, kajxulq xotun ilohiy olamda qolmag`ay" .

Bobur shaxs tarbiyasiga, xususan, farzandlarining o`nib-o`sishiga, ma'naviy- axloqiylilik mezonlarini puxta egallashiga alohida e'tibor qaratadi. Eng muhimi, el bilan doimo birga bo`lishini o`z o`g`liga maslahat beradi, farzandidan xalqdan ajrab yurish kabi yomon odatga barham berishini talab qiladi: "Yana ulug` ish ustiga borasen, ish ko`rgan, ray va tadbirlik beklar bila kengashib, alarning so`zi bila amal qilg`aysen. Agar mening rizom tilarsen, hilvat nishinlikni va el bila kam ixtilochilikni bartaraf qilg`il"1, - deb maslahat beradi Bobur.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko`rinib turibdiki, Bobur tarbiya jarayonida pedagogikadagi pand-nasihat qilish usulidan o`rinli foydalangan. Bu o`z navbatida farzandlarini tarbiyalash jarayonida tarbiya ta'sirchanligini oshirishga xizmat qila olgan. Faqat bugina emas: shoirning ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy qarashlarida ham tarbiyaning pand-nasihat usuli keng qo`llangan. Fikrimizni dalillash uchun yana shoirning "Boburnoma"dagi ayrim xulosalariga murojaat etamiz.

Boburning nazarida, ota - farzand uchun eng ulug` va mo`'tabar zot. Ota bilan muqaddas Ka'ba bir-biri bilan tengdir: ya'ni Ka'ba qanchalik e'zozlansa, farzand ham o`z otasini shunchalik darajada e'zozlashi zarur. Agarda farzand qiblaga qarab qanchalik duo va fotiha qilsa, otaga ham shunchalik darajada nazar solishi shart. Farzandning yana vazifalari: ota dilini zinhor-zinhor og`ritmaslik, otaga ozor bergan shaxsdan ham uning, ozoridan ham, hatto ota chekkan ozoridan ham hazar qilish zarur:

"Otang chunki, qibla debturlar,
qibla yanglig` anga nazar qilg`il.

Ota og`ritma, ey odam, zinhor,
Otang ozoridin ham hazar qig`il".

Ko`ramizki, Boburning qobil farzand o`z otasiga qay darajada munosabatda bo`lishi zarurligi haqidagi bunday o`git-nasihatlari juda ham ta'sirchan va sermazmun, ayni paytda, xalqona ahamiyat kasb etadiki, buning bir talay tabiiy asoslari bor. Chunki, ollohning inoyati bilan moddiy mavjudot sifatida dunyoga keltirgan, ta'lim-tarbiya berib voyaga etkazgan, edirib-ichirib, kiydirib, el qatoriga qo`shgan otani xor qilish, uning dilini og`ritish kabi noinsoniylik xislatlari xalqimiz orasida azaldan qattiq qoralangan. Bordi-yu bu toifadagi kishilar hayotda onda-sonda uchrab qolsa, ma'naviy axloqsizlikda ayblangan, el nazaridan butunlay tushgan, eng pastkash shaxs, noqobil farzand sifatida "otning qashqasi"dek hammaga tanilgan. Bobur ham ma'rifatparvar shoh va davlat arbobi sifatida, o`z farzandlari va nevaralariga mehribon ota sifatida bunday yuzi qora kishilarni qattiq qoralaydi; o`z o`g`illariga, kelajak avlodlarga yana didaktik ko`rsatma va tavsiyalar beradi:

"Oluday yuz tuman maosiy bo`lmoq,
Yuz ranju tuman azob xosi bo`lmoq,
Ko`p yaxshi ekin ahli xiradning qoshida
Kim og`ritib otani osiy bo`lmoq." 1

Boburning ma'rifatparvarligida va hayotdagi mehribon ota sifatidagi murabbiy-tarbiyachilik fazilatlaridagi eng etakchi jihat shundaki, kimga qanday va nima haqida o`git-nasihatlar bermasin, ularda eng avvalo, tarbiyadagi muloyimlilik va kamtarlilik xislati ustun turganligini, qo`pollik butunlay rad etilganligini, tarbiya ta'sirchanligi yo`lida o`z yonidagi tinglovchiga ba'zan yon ham berganligiga amin bo`lamiz. Olloh tomonidan berilgan oliy ne'mat – inson umrining har lahzasi g`animat ekanligi, uning qadriga har bir farzand o`z vaqtida tushunib etishi shartligi qayta-qayta uqtiriladi:

"G`ofil o`lma, ey soqiy, gul chog`in g`animat tut,
Vaqti aysh erur boqiy, ol chog`ir, ketur, bot tut.
Bu nasihatim angla, ne bo`lur kishi yongla,
Ne bo`lur ekin tongla, sen bugun g`animat tut.
g`ofil o`lma davlatga, o`zni solma mehnatga,
Tengri berur albatta, davlat ista, himmat tut".1

Xullas, Boburning ma'rifiy qarashlarida va hayotida murabbiy va mehribon ota sifatida o`z farzandlariga, kelajak avlodlarga bildirgan muulohazalarida kamtarlilik, ilmlilik, zehnlilik, kuzatuvchanlik va hushyorlilik, insoflilik, odoblilik, xushmuomilalilik, yaxshilik va yaxshi nom qoldirishlilik, el nazaridan qolmaslik, islom va ona-vatanga e'tiqodlilik, mehribonlilik, do`st qadriga etishlilik, kattalarga hurmatda va kichiklarga izzatda bo`lishlilik, lafziga vafolilik kabi

qator insoniy fazilat va sifatlar, ma'naviy-axloqiylilik mezonlar etakchi o`rinni egalaydi. Biz Boburdek ma'rifatparvar bobokolonimiz shaxsi va ijodi bilan faxrlanishimiz, asarlarini chuqurroq o`rganishimiz va kelgusi avlodlar qalbiga ulardagi umuminsoniy g`oyalarni singdirishimiz zarur.

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida etishib chiqqan milliy pedagogikamiz darg`alari, o`zbek milliy ilm va ma'rifatining atoqli vakillari ham shaxs tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog`liq bo`lgan o`zlarining fikr-mulohazalarini va hayotiy kuzatishlarini yozib qoldirganlar.

Biz ushbu o`rinda Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziylarning barkamol shaxs tarbiyasi, umuman, insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi haqidagi fikrlari va xulosalariga qisqacha to`xtalib o`tish bilan cheklanamiz.

Fitrat o`z asarlarida, xususan, "Rahbari najot"da ta'lim-tarbiya va uning maqsadlari, maktab-maorif ishlari, bilim berish usullari va vositalari haqida, ma'rifatli, komil insonni tarbiyalash yo`llari to`g`risida fikr bildiradi. Fitrat bu asarida ham milliy ham ma'naviy taraqqiyotga erishish, dunyoviy fanlarni o`rganishga da'vat etadi.

Fitrat o`z pedagogik qarashlarida, bolalarni barkamol qilib etkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo`lmasdan butun qavm a'zolari javobgar ekanligini uqtiradi. U yoshlarning har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalashni qavmning kelgusi taraqqiyotida muhim ahamiyatga kasb etishini ta'kidlaydi.

Fitrat insonning kamolotga etishi uchun badan tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib, insonning butun a'zosi salomat va kuch-quvvatga ega bo`lmasa, unday inson uzoq yashamasligini qayd qiladi. Fitratning fikricha, inson hayotining mazmuni dunyo saodati va saodat rahbari aqlning komilligiga erishishdir. Komil aqlning hosil bo`lish vositasi esa ilmdir. Inson komillikka-ilmga erishish uchun ma'lum axloqiy majburiyatlarni ado etmog`i lozim.

Ma'naviy majburiyat inson qalbining taraqqiy etishi uchun bajarilishi lozim bo`lgan vazifalardan iborat. Inson o`ziga va barcha odamlarga foyda keltirsa, uning qalbi kamolga etgan hisoblanadi. Kimning qalbi yaxshi sifat va fazilatlarga to`liq bo`lsa, u odam xushaxloq, unda uch xil quvvat: aql, xirs va g`azab quvvati mavjuddir. Fitrat o`z asarida bu uch quvvatni tahlil qilar ekan, insonlarga quyidagi ishlar bilan shug`ullanishni maslahat beradi: har bir kishi ezgu ishlar bilan shug`ullanmog`i, yaxshi sifatlarni egallab xushaxloq bo`lishi lozim.

Fitrat axloqiy fazilatlarni to`rt qismga: hikmat (donishmandlik) iffat, shijoat va adolatga bo`ladi. Uning ta'kidlashicha, hikmat aqliy quvvat islohining natijasidir. Aql islom dinida ham eng sharaflidir. Inson aqlning rahbarligisiz saodatga musharraf bo`laolmaydi. Fitrat aqlni ikki qismga: fitriy (tabiat in'om etgan) aql va kasbiy aqlga bo`ladi va kasbiy aql ilm tahsili orqali hosil qilinishini aytadi.

Ma'rifat so`zi insonlarning ongini, bilimini va madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ma'nolarini ifodalaydi. Ma'rifat uchun kurashuvchi insonlar hayotda ma'rifat homiylari, ayni choqda, ilmli va madaniyatli shaxslar hisoblanganlar. Ma'rifatparvarlar o`zining shonli hayoti davomida, amalga oshirgan xayrli ishlarida tarbiya va ta'lim masalalariga alohida e'tibor berganlar. Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziylar hayotda va ijodda ham pedagog, ham ma'rifatparvar ijodkor sifatida tanilganlar, ayni choqda, milliy pedagogika tarixi sahifalarida o`zlarining ta'lim-tarbiya, xususan, ma'naviy-axloqiylik mezonlari bilan bog`liq e'tiborli mulohazalarni ayta olganlar.

Bu o`rinda dastlab Avloniyning ma'rifiy qarashlaridagi xulosa va tavsiyalariga e'tiborni qaratamiz. "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asarida axloq, xulq, yaxshi xulqlar, yomon xulqlar, tarbiya, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi haqidagi maxsus bo`limlarga alohida sahifalar ajratgan: unda har birining o`ziga xos xususiyatlari, mazmun-mohiyati alohida-alohida tavsiflangan, o`zi ochgan va murabbiylik qilgan maktab o`quvchilariga soddagina tarzda bayon qilingan. Birgina misol: axloq ilmi va uni o`zlashtirib, amalga oshirishga harakat qilgan insonlarning ma'naviy fazilatlari haqida quyidagicha xulosa beradi:

"...Insonlarni(ng) yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg`on kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o`qub, bilub amal qilgan kishilar o`zining kim ekanini, janobi Haq na uchun xalq qilganin, er yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o`zidan o`zidan xabardor bo`lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O`z aybini bilub, iqror qilub, tuzatmakg`a sa'y va qo`shish qilgan kishi chin bahodir, pahlavon kishidur"

A.Avloniyning fikricha, ikki narsa inson uchun murakkab: jasad va nafs. Bularning birinchisi ko`z bilan hamma narsalarni ko`radi, ikkinchisi esa idrok bilan yaxshini yomondan ajratadi. Natijada, "Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yomon bo`ladur. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadurki, har vaqt ko`zga ko`rinib turadur. Ammo nafsning surati ko`zga ko`rinmaydurgan, aql ila o`lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur", - degan xulosaga keladi.

A.Avloniy inson xulqi haqida so`z yuritar ekan, eng avvalo, islom ta'limotiga asoslanib, uni ikki qismga bo`lishni tavsiya etadi: yaxshi xulq va yomon xulq. Shundan so`ng har bir hulqni alohida-alohida qisqacha tavsiflaydi, uning murabbiy sifatidagi mahorati shundaki, tarbiya jarayonini etakchi omil sifatida belgilab beradi. U yozadi: "agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg`a tavsif bo`lib "yaxshi xulq", agar tarbiyatsiz o`sub, yomon ishlaydurgan bo`lub ketsa, yomonlikg`a tavsif bo`lib "yomon xulq" deb atalur. Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila

qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkurmak tarbiya ila bo`ladur. “qush uyasida ko`rganini qiladur”. Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go`zal xulqlarga odatlanub, katta bo`lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo`lib chiqar. Agar tarbiyatsiz, ahloqi buzulub o`ssa, Ollohdan qo`qmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog`iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoi olam bo`lub qolur”. 1

A.Avloniy hayotda tarbiyachi-murabbiy, ijodda ma'rivatparvar bo`lgani uchun ham tarbiyaning maqsadi va vazifasini, inson axloqining go`zal va chiroyli bo`lishiga ko`rsatadigan ta'sirini juda yaxshi bilgan. Uning fikricha “tarbiyani inson tug`ilganidan boshlamoq, vujudini quvvatlantirmoq, fikrini nurlantirmoq, axloqni go`zallantirmoq, zehnni ravshanlantirmoq” zarur. Tarbiyani kimlar va qaerda beradi? degan savolga shunday javob beradi: “birinchisi - uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi - maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, muddaris va hukumat vazifasidur” .

A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”da badan tarbiyasi va fikr tarbiyasi haqida so`z yuritarkan, axloq tarbiyasiga alohida va maxsus to`xtaladi: uni “insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur”, - deb tushunadi. U o`z o`quvchilariga darsdagi tarbiya bilan dars orasida tamomila farq borligini, ya'ni “dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdir”, - deb alohida tushuntiradi. Ma'rifatparvar ijodkor fikricha, dars beruvchi ustozning o`zi eng avvalo amalda tarbiyalangan va xushxulqlilik fazilatlariga ega bo`lmog`i zarur: “Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o`zlari ilmlarga omil bo`lib, shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila choqushturib o`rgatmaklari lozimdir. Bu ravish ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarining diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo`lurlar...

Agar tarbiya qiluvchi muallim o`zi olim bo`lub, amalsiz bo`lsa, buning ham shogirdlarning ahloqiga zo`r ta'siri bo`ladur. “Domlamning o`zi falon joyda falon ishni qildi. Ammo bizlarga qilmanglar, haromdur, deb va'z aytadur”, deb fikr va xayollariga bo`yla shak va shubha tushub qoladur.”, - degan xudosani beradi.

A.Avloniy yaxshi xulqlar haqida so`z yuritar ekan, fatonat (aqllilik), diyonat, islomiyat (islomga e'tiqodlilik), nazofat (poklik, ozodalilik), sa'y va g`ayrat (inson zimmasiga yuklatilgan ibodat va xizmatlarni harakat bilan bajarishlilik), riyoziyot (barcha qiyinchiliklarni bo`yinga olib, savob ishlarni qilishlik va gunoh ishlardan saqlanishlik), shijoat (jasur va qo`rqmaslik), qanoat (shukr qilishlik), ilmlilik, sabrlilik, xilm (qo`rqmaslik, yumshoq tabiatlilik), intizom, nafsni tiyishlilik, vijdoniylik, vatanni suymak (vatanga e'tiqodlilik), haqqoniyat (to`g`ri so`zlilik, rost gapirishlilik), nazari ibrat (sinchkovlilik), iffat (gunoh va buzuq ishlardan saqlanish), hayo (so`zda va amaldagi odoblilik), idrok va zakko (ochchiq fikrlilik, xushtabiatlilik, ziyrak

bo`lishlilik), xifzi lison (millat tiliga sodiqlik), iqtisod (pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilishlik), viqor (kibr, g`urur va manmanlikdan o`z nafsini saqlamoqlik), xavf va rajo (qo`rqishlik va umidgor bo`lmoqlik), itoat (bo`ysunishlik), haqshunoslik (inson yaxshiligini unutmaslik), xayrixohlik (qo`llab-quvvatlashlik), munislik (o`z tengi va maslakdoshi bilan ulfat bo`lmoqlik), sadoqatlilik, adolatlilik, muhabbatlilik (biror narsani suyishlik), oliyhimmatlilik, avf (kechirimlilik) kabi insoniy fazilatlar va sifatlar, ma'naviy-axloqiylikning etakchi mezonlari haqida maxsus ham nazariy, ham amaliy xulosalarini beradi. Har bir fazilatlar bo`yicha o`z o`quvchilariga tarixiy, diniy va kundalik-hayotiy misollar orqali fikr-mulohazalarni sodda qilib bayon etgan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, A.Avloniy o`z o`quvchilarini yuqorida ta'kidlangan ma'naviy-axloqiylik mezonlarni puxta o`zlashtirib, hayotda va amaliyotda to`la-to`kis qo`llash jarayonida duch keladigan "insonlarni abadiylikdan mahruh qiladirgan, Xaq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo`lgan axloqi zamimalar"- ya'ni, yomon xulqlar va ularning mazmun-mohiyati haqida ham tegishli ma'lumotlar, zaruriy pedagogik tavsiyalar bergan.

Ma'rifatparvar ijodkorning belgilab bergan yomon xulqlar quyidagilardan iborat: g`azab (biror kishining ikkinchi kishiga shiddat va tezkorlik bilan me'yordan, muomala me'yoridan chiqishlik), shahvat (jismoniy nafsdan hosil bo`ladigan quvvat), aqsomi jaholat (biror narsani bilmaganlar va shunga iqror bo`lganlar yoki uning tamomila aksi, ya'ni teskarisi: biror narsani bilmay, bilmaganini ham bilmasdan bilaman deb, da'vo qiluvchilar), jaholat (bilimsizlik, nodonlik), safohat balosi (buzuqlik va g`ayri joylarda umrini, mol-dunyosini behudaga sarflash), hamoqat (aql va ma'rifatning kamligi), atolat (dangasa va yalqovlik), hasosat (ta'ma va zillatni bo`yinga olib, ortiqcha molu-dunyoga, boylikka hirs qo`yishlik), rahovat (tanparvarlik, g`ayratsizlanishlik), anoniyyat (xudbinlik, mutakabbirlik, manmanlik), adovat (birovga xusumat va dushmanlik qilishlik), namimat (chaqimlilik, g`iybatchilik), g`iybat (biror kishining kamchilik va qusurlarini orqasidan gapirishlik), haqorat (biror kishining nafsi va g`ururiga tegadigan so`zlarni aytishlik), jibonat (qo`rqoqlilik, yuraksizlik), hasad (biror ne'mat va davlatning zavolini tilamoqlik), kizb (yolg`on so`zni aytish), nifoq (ikkiyuzlamachilarning aytgan so`zlari), tama' (biror narsadan umidgor bo`lmoqlik), zulm (birovning joniga yoki molu-dunyosi, boyligiga zarar etkazmoqlik) kabi noinsoniy fazilatlar, aniqrog`i, qusurlar va ayblar shular jumlasidandir.

